

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 88 (1149), 2024-yil 8-may, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI YANGI TAYINLANGAN ELCHILARNING ISHONCH YORLIQLARINI QABUL QILDI

7-may kuni mamlakatimizga yangi tayinlangan xorijiy elchilar tomonidan ishonch yorliqlarini topshirish tantanali marosimi bo‘ldi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Vengriya elchisi Yojef Roja, Eron Islom Respublikasi elchisi Muhammadali Iskandariy, Chexiya Respublikasi elchisi Lyubomir Frenbort, O‘mon Sultonligi elchisi Vafo al-Busaidiy, Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi elchisi Muhammad Irqiydan ishonch yorliqlarini qabul qildi.

Davlatimiz rahbari xorijiy diplomatik vakolatxonalar rahbarlarini tayinlov bilan samimiy qutlab, O‘zbekiston va ular vakillik qilayotgan mamlakatlarni yaqinlashtirish, ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirishdagi muhim o‘rni qayd etdi.

O‘zbekiston Prezidenti global geosiyosiy va iqtisodiy muammolar avj oloyotgan, barqaror rivojlanishga tahdidlar tobora kuchayayotgan hozirgi davrda davlatlar o‘rtasida konstruktiv muloqotni, do‘stona va o‘zaro manfaatli munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda diplomatlar faoliyati yanada muhim ahamiyat kasb etayotganini ta’kidladi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlari o‘z ifodasini topgan. Jumladan, dunyodagi barcha davlatlar bilan do‘stlik va hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, ishlab chiqarish va eksport

salohiyatini oshirish, xususiy sektor uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish.

— Bugungi O‘zbekiston — jahonga keng ochilayotgan, xorijiy sheriklari bilan uzoq muddatli va keng qamrovli aloqalarini izchil rivojlantirib borayotgan tinchliksevar va adolatlilik ijtimoiy davlatdir, — dedi Prezident.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston iqtisodiyoti so‘nggi yetti yilda ikki barobar o‘sgani, investitsiyalar, savdo aylanmasi hajmi muttasil oshayotgani, eksport geografiasini kengayayotganiga e’tibor qaratdi. Dunyodagi yetakchi kompaniyalar, mashhur brendlar bozorimizga faol kirib kelmoqda.

Kuni kecha 93 ta mamlakat vakillari ishtirokida o‘tgan uchinchi Toshkent investitsiya forumi va Xorijiy investorlar kengashi majlisining muvaffaqiyatli o‘tkazilgani ham buning yaqqol tasdiqi’idir.

O‘zbekiston bundan buyon ham xalqaro maydonda ochiq, pragmatik va tashabbuskor tashqi siyosatni izchil davom ettirishini ta’kidlab, davlatimiz rahbari elchilar diqqatini ular vakillik qilayotgan mamlakatlar bilan munosabatlarni sifat va mazmun jihatidan yangi darajaga ko‘tarish muhimligiga qaratdi.

Prezidentimiz Vengriya elchisiga murojaat qilar ekan, Budapesht O‘zbekistonning

Yevropadagi muhim va vaqt sinovlaridan o‘tgan ishonchli sherigi ekanini qayd etdi.

— So‘nggi yillarda Bosh vazir Viktor Orban bilan birgalikdagi qat‘iy intilish va aniq maqsadga yo‘naltirilgan harakatlarimiz natijasida aloqalarimiz strategik sheriklik darajasiga ko‘tarildi, — dedi Prezident.

Shuningdek, ikki tomonlama tovar ayirboshlash ikki barobar o‘sgi, qo‘shma korxonalar soni oshmoqda, o‘tgan yili Budapeshtda O‘zbekiston elchixonasi ochildi, yuzdan ortiq o‘zbekistonlik talaba “Stipendium Hungaricum” dasturi doirasida Vengriya oliy ta’lim muassasalarida tahsil olmoqda. Yurtimiz bozorida Vengriyaning “OTP Bank”, “Bonapharm”, “Gedeon Richter”, “Meditop” kabi bir qator yetakchi kompaniya va banklari muvaffaqiyatli ishlayotgan.

Toshkent va Budapesht o‘rtasida aviaqatnovlar boshlanishi ishlabarmonlik aloqalari va turizm almashinuvlarini yanada faollashtirishga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

Davlatimiz rahbari Eron bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi aloqalar ko‘p ming yillik tarixiy ildizlardan kuch oloyotganini ta’kidladi. Bugungi Eron katta iqtisodiy, madaniy va intellektual salohiyatga ega mamlakat. Keyingi yillardagi oliy darajadagi tarixiy tashriflar va erishilgan muhim kelishuvlar munosabatlrimizda yangi yuksalish davrini boshlab berdi.

Barcha darajada o‘zaro muloqotlar faollashdi. Ikki tomonlama savdo hajmi o‘smoqda, qo‘shma korxonalar soni 300 taga yetdi. Qayd etilganidek, tomonlar tovar ayirboshlashni 1 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha aniq rejalarni belgilab olgan.

O‘zbekiston Eron bilan tog‘-kon, energetika, kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash va farmatsevtika sohalaridagi hamkorlik ko‘lamini kengaytirishdan manfaatdor.

Transport yo‘laklari va tranzit borasidagi hamkorlik salohiyatini to‘liq ishga solish muhimligi qayd etildi.

Prezidentimiz Chexiya Respublikasi O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqidagi an’anaviy va muhim hamkori ekanini ta’kidladi. O‘tgan yili hukumat delegatsiyalarining o‘zaro tashriflari ikki tomonlama aloqalarimizni yangi bosqichga ko‘tardi.

Birgina o‘tgan yilning o‘zida o‘zaro savdo ikki barobarga ko‘paygani hamkorlik borasida katta imkoniyatlar mavjudligini yaqqol tasdiqlaydi. O‘zbekistonda Chexiyaning yetakchi kompaniyalari sanoat, infratuzilma, tibbiyot, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. “Toshkent — Praga” aviaqatnovlari yo‘lga qo‘yilmoqda.

Kelishilgan investitsiya loyihalarini to‘liq amalga oshirish va sanoat kooperatsiyasi

bo‘yicha dasturni qabul qilish muhimligi ta’kidlandi. Chexiya Eksport banki hamda Eksportni kafolatlash va sug‘urtalash korporatsiyasining mamlakatimiz bank-moliya bozoriga kirish rejalari yuqori baholandi.

Prezidentimiz O‘mon Sultonligi O‘zbekistonning Yaqin Sharq mintaqasidagi muhim hamkorlaridan biri ekanini ta’kidladi. Muqaddas islom dini, o‘xshash urf-odat va qadriyatlar hamkorligimizning mustahkam poydevoridir.

— Toshkentda Sulton Haysam Ol Said ishtirokida ochilgan Sharqshunoslik institutining muhtasham kutubxonasi davlatlarimiz o‘rtasida o‘ziga xos do‘stlik ramzi bo‘lib kelmoqda, — dedi davlatimiz rahbari.

Ikki mamlakat hamkorligida hali ishga solinmagan juda katta salohiyat bor. Tez orada Hukumatlararo komissiyaning yig‘ilishini o‘tkazish, ishlabarmonlar kengashini tuzish zarurligi qayd etildi.

Qishloq xo‘jaligi, transport va logistika, telekommunikatsiya, to‘qimachilik sanoati, turizm kabi sohalar hamkorlik uchun istiqbollidir. O‘zbekiston — O‘mon investitsiya kompaniyasi imkoniyatlaridan unumli foydalanish muhimligi ta’kidlandi.

O‘zbekiston Prezidenti Jazoir arab-musulmon dunyosida jadal sur‘atda taraqqiy

etayotgani, katta iqtisodiy salohiyatga ega mamlakat, Afrika qit‘asidagi istiqbolli sherigimiz ekanini ta’kidladi. Jazoir arab davlatlari orasida birinchi bo‘lib Toshkentda o‘z elchixonasini ochgan.

Oliy darajadagi uchrashuvlarni tashkil etish, siyosiy maslahatlashuvlar mexanizmini joriy etish, Hukumatlararo komissiyaning birinchi yig‘ilishini o‘tkazish zarurligi, bu ikki tomonlama munosabatlarga yangi sur‘at bag‘ishlashi ta’kidlandi.

Neft-gaz, energetika, qishloq xo‘jaligi va turizm sohalarida aniq investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun delegatsiyalarning o‘zaro tashriflarini uyushtirish zarurligi qayd etildi.

Marosim yakunida Prezidentimiz elchilarga sharaflari faoliyatida katta muvaffaqiyatlar tilab, mamlakatimiz hududlariga borish, yurtimizda bo‘layotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishishga chaqirdi. Bu, hech shubhasiz, hamkorlik mustahkamlanishiga xizmat qilishini ta’kidladi.

Diplomatlar samimiy qabul, samarali faoliyatiga yaratilgan sharoitlar uchun minnatdorlik bildirib, O‘zbekiston bilan ko‘p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishga bor sa‘y-harakatlarini qaratishlarini ta’kidladi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN ROSSIYADA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 8-9-may kunlari amaliy tashrif bilan Moskva shahrida bo‘ladi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan mamlakatimiz yetakchisi kuzatuvchi davlat rahbari sifatida Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi yig‘ilishida hamda Ikkinchi jahon urushidagi G‘alabaning

79 yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirlarda ishtirok etadi. Tashrif doirasida qator ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazilishi ham rejalashtirilgan.

O‘ZA



VENGRIYA BILAN KO‘P QIRRALI HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 7-may kuni qo‘shma Hukumatlararo komissiya tadbirlarida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Vengriya tashqi ishlar va savdo vaziri Peter Siyyartoni qabul qildi.

Peter Siyyarto davlatimiz rahbariga Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi hamda uchinchi Toshkent investitsiya forumi muvaffaqiyatli o‘tkazilgani bilan tabriklandi.

Uchrashuvda O‘zbekiston bilan Vengriya o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Ikki mamlakat strategik sherikligi izchil mustahkamlanib, amaliy aloqalar jadal rivojlanib borayotgani mamnuviyat bilan qayd etildi.

Barcha darajalarda faol muloqotlar davom etmoqda. Keyingi yillarda tovar ayirboshlash hajmi ikki barobarga ko‘paydi, qo‘shma loyiha va korxonalar soni oshmoqda.

O‘ZA

Sanoat, farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi, baliqchilik, logistika, ko‘chmas mulk obyektlarini qurish va boshqa yo‘nalishlardagi loyihalarni ilgari surish masalalari ko‘rib chiqildi. Toshkent viloyatida Vengriya va Yevropa kompaniyalarining loyihalari uchun maxsus iqtisodiy zonani tez fursatda ishga tushirish muhimligi ta’kidlandi.

Gumanitar almashinuv ham kengaymoqda. Talabalarimiz Vengriyaning yetakchi oliy ta’lim muassasalarida tahsil olmoqda.

Shuningdek, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi, shu jumladan, Turkiy davlatlar tashkilotidagi hamkorlik masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

Taraqqiyot yo‘li DEMOKRATIK ISLOHOTLARNING YANGI BOSQICHI

parlament faoliyatida qanday o‘zgarishlar yasamoqda?

Prezidentimizning 2023-yil 8-maydagi “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy sohalaridagi yangilanish jarayoniga o‘zgacha ruh baxsh etmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi huquqiy islohotlar natijasida davlat hokimiyatining barcha tizimi isloh qilinib, ular o‘rtasidagi munosabatlar tubdan o‘zgartirish muhim yutuqlardan bo‘ldi. Bu jarayonda demokratik davlatning ustunlaridan biri bo‘lgan parlament faoliyati ham takomillashyapti.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida ham bu jahbdagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish bilan bog‘liq dolzarb vazifalar belgilangan.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti direktori, yuridik fanlar doktori Akrom Toshpo‘latov bilan suhbatimiz shu yo‘nalishda qilinayotgan ishlar, konstitutsiyaviy islohotlar samarasi, parlament

faoliyatini takomillashtirish bilan bog‘liq vazifalar xususida bo‘ldi.

— Parlament haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlar tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo‘lishi kerak degan g‘oya bugun hayotimizda qanday namoyon bo‘lmoqda?

Davomi 4-betda

Munosabat



Qo'ng'iroq SHARIPOV,
oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vaziri

Oliy ma'lumot har bir insonga jamiyatda o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lish imkonini bersa, davlatga bilimlarni tanlab olish, qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy, iqtisodiy, muhandislik va texnologik sohalarini ilmiy-institutsional qamrab olishga, pirovardida, inson kapitalini samarali yo'naltirishga xizmat qiladi.

Shu ma'noda, oliy ta'lim sohasida akademik ta'limga ajratiladigan grantlarning ahamiyati, ayniqsa, o'qitish sifatini oshirishda g'oyat muhim. Bu omil oliygo'hlarni innovatsion va inklyuziv markazlarga aylantiradi, oliy ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi hamda mamlakat taraqqiyotini tezlashtiradi.

Joriy yil 6-may kuni Prezidentimiz huzurida oliy ta'lim tizimi bo'yicha o'tkazilgan taqdimotda aynan bilimli kadrlarni tanlab olish, imtiyozlar bilan qo'llab-quvvatlash, salohiyatli kadrlarni tayyorlash istiqbolli ekanini ta'kidlandi.

A'LOCHI TALABALAR GRANT ASOSIDA O'QIYDI

Endi davlat granti bir talaba uchun 4 yilga berilmaydi

Yig'ilishda oliy ta'limda shaffoflik va samaradorlikni ta'minlash, 2024/2025-o'quv yili oldidan qabul kvotalarini qayta ko'rib chiqish va malaka talabalarini xalqaro darajaga ko'tarish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Davlatimiz rahbari bakalavriat va magistratura yo'nalishlaridagi katta tafovutni qisqartirish, ularni zamonaviy mehnat bozori talabalariga moslashtirish zarurligini ta'kidladi. Bugun oliy ta'lim muassasasini bitirayotgan talabalarda to'liq malaka shakllanmagani aynan ularning ishga joylashuvda asosiy muammo bo'layotgani tanqidiy baholandi.

Barcha oliygo'hlarni iqtisodiyotdagi "talab va taklif" asosida ishlash, sohalaridagi ehtiyojni mahalliy ijro organlari, nodavlat tashkilotlar, tadbirkorlar va investorlar bilan kelishilimda holda aniqlash, eski ta'lim yo'nalishlarini qisqartirib, yangilarini tashkil etish chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

Haqiqatan, g'oya va innovatsiyalar ijodkorligi, tashabbuskorlik, ochiq va konstruktiv islohotlar, tashqi siyosatdagi iqtisodiy pragmatik hamkorlik natijasida mamlakatimiz agrar sektorga qaramlikdan qutulib, yengil va og'ir sanoat jabhalarida misli ko'rilgan iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishildi.

Bunday keng ko'lamli islohotlar bitiruvchilar orasidan iqtidorli va bilimli yoshlarni tanlab olish, qobiliyatli yigit-qizlarni kasb-hunarga o'qitish, muhandislik, qurilish va texnologik sohalar rivojlanib borayotgan mamlakatimizda texnikumlar faoliyatini oliy ta'limga integratsiya qilgan holda takomillashtirish imkonini beradi. Buning natijasida industrial sanoat taraqqiy etadi.

Ilgari oliygo'hlarga o'qishga kirishda yo'nalishlar bo'yicha 40 ta grant ajratilgan bo'lsa, endi yuqori ball to'plagan abituriyentlarni



grant asosida o'qishga qabul qilish orqali qo'llab-quvvatlash topshirig'i berildi. Yangi tartibga ko'ra, muayyan yo'nalishga ajratilgan davlat granti doirasida yuqori ball to'plagan abituriyent, tanlagan oliy ta'lim muassasasidan qat'i nazar, davlat grantiga tavsiya etiladi. Ya'ni yuqori ball olgan yoshlar o'qishga kirmay qolmaydi.

Yana bir yangilik: endi davlat granti bitta talabaga 4-yilga berilmaydi, balki har yili yuqori baho olgan talabalar orasida qayta taqsimlanadi. Ilgari sezilarli tafovutga ega bo'lmagan 0,75, boriqki 2-3 ball uchun ham to'lov-shartnomaga tushgan tufayli keyingi yili hujjat topshirgan yoki oilaviy sharoiti to'g'ri kelmay, o'qishdan butunlay voz kechgan oilalar farzandlarini ko'p ko'rganmiz.

bu yerda masala faqat birgina yigit yo' qizning 11-yil o'qib to'plagan oltindan qimmat bilimni yo'qolib ketishidagina emas, balki ularga ta'lim bergan o'qituvchilarning mehnati ham zo'ye ketishidadir.

Davlatimiz rahbarining mazkur yig'ilishda maktabni bitirayotgan bilimlari o'g'il-qizlarimizga bildirgan katta ishonchi, otalarcha g'amxo'rligi "inson qadri uchun" tamoyilining yuksak namunalardan biridir, desak mulohaza bo'lmaydi.

Rivojlangan davlatlarda grantlar talabalarga ko'plab imtiyozlar berish barobarida, oliy ta'limda tadqiqot va innovatsiyalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Grantlar akademik ta'lim orqali turli sohalar, jumladan, muhandislik, texnologiya

jabhalarida katta ilmiy, iqtisodiy yutuqlarga sabab bo'ladi, OTMlarning mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shishiga xizmat qiladi.

Yana bir jihati shuki, u talabalarga oliy ma'lumot olishda moliyaviy yordam shakli bo'lib, bu qo'llab-quvvatlov munosib shaxslarning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat'i nazar, ta'lim olishda teng imkoniyatga egaligini ta'minlaydi, inklyuzivlikni rag'batlantiradi.

Universitet grantlari akademik dasturlarni takomillashtirish va kengaytirish uchun juda muhim. Ushbu mablag' yuqori ta'lim standartlarini ta'minlashda alohida ahamiyatga ega bo'lgan yangi o'quv dasturlarini modernizatsiya qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, grantlar qo'shma tadqiqot loyihalari va tashabbuslar orqali fanlararo hamkorlikni, an'anaviy bilimlar rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, darslik va akademik dasturlarni diversifikatsiya qilish, talabalarni kasbga yo'naltirish jarayoni hamda murabbiylik dasturlarini kengaytiradi.

Universitetlarga jamoatchilikni jalb qilish dasturlarini boshlash, mahalliy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish va jamiyatga foyda keltiradigan loyihalarni ro'yobga oshirish imkonini beradi.

Yig'ilishda "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisi hamda ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligini to'la integratsiyalashtirishga yo'naltirish ta'kidlandi.

Loyiha ofisi asosan, pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tahlil qilish barobarida qo'llab-quvvatlaydi. Xususan, pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkilotlarini tizimli rivojlantirish, professional ta'limdan

so'ng oliy ta'limni davom ettirish imkoniyatini yanada kengaytirish, 3 yillik ta'lim dasturlari asosida amaliy bakalavriat bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yishni kafolatlaydi.

Shu bilan birga, o'qitish sohasida davlat boshqaruvi organlarining ayrim funksiyalarini (ta'lim tashkilotlari reytingini aniqlash, ta'lim dasturlarini akkreditatsiyadan o'tkazish va boshqalar) nodavlat, shu jumladan, xalqaro tashkilotlarga aytib berish bo'yicha takliflar tayyorlashni o'z ichiga oladi.

Professional va oliy ta'limda kasbiy ko'nikmalarni tizimli hamda baholash bo'yicha yangi joriy qilishdagi sa'y-harakatlar bilimlarni tanlab olish va kelajakni ishonchli qo'llarga topshirishimizda to'g'ri yo'l ko'rsatadi.

Yig'ilishda adolati ta'lim islohotlariga erishishda bevosita OTMlarning ichki tartib-qoidalarini, ma'muriy boshqaruvi muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlandi. Yangi o'quv yili boshlangunga qadar akademik ta'lim tizimini qayta isloh qilish, raqamlashtirilgan yangi tizimni joriy etish vazifasi qo'yildi.

Yangi o'quv yilida qabul kvotalarini to'g'ri tahlil qilgan holda taqsimlash, mehnat bozori ehtiyojiga qarab ajratilgan davlat granti doirasida yuqori ball to'plagan abituriyent, tanlagan oliy ta'lim muassasasidan qat'i nazar, davlat granti asosida o'qishga kirish ta'minlanishi belgilab berildi.

Ilgari davlat granti bir talabaga bakalavriat bosqichida uzluksiz taqdim qilingan bo'lsa, endi grantni oqlash, mas'uliyatni his qilish va o'qishni o'zlashtirishni muntazam rivojlantirib borish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadida har yili yuqori baho olgan talabalar orasida ushbu grant o'rni qayta taqsimlanadi.

Davlatimiz rahbari malaka talabari bo'yicha jahon andazalariga mos ish yuritish, malakani baholashni sertifikatlash, innovatsion malaka standartlarini ishlab chiqish va tizimni raqamlashtirish zarurligini qayd etdi. Bu borada Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutini tashkil qilib, ish beruvchilar bilan birga malaka talabalarini to'liq ishlab chiqish vazifasini berdi.

Yig'ilishdan ko'zlangan istiqbolli maqsad oliy ta'limni qayta ko'rib chiqish orqali o'qitishda adolati ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish, xususan, muhandislik va texnologiya sohalarida malakali kadrlar tayyorlashni kengaytirish, buning uchun ilg'or xorijiy universitetlar bilan fan va mutaxassisliklar yo'nalishida tajriba almashish, akademik ta'limni tez sur'atda, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqishdir.

Hududlar hayoti

Eng toza va kislorodga boy suvda, 18 darajagacha haroratda yashaydigan forel (xonbaliq) baliq'ini hamma ham sotib olavermaydi. Quvvati qo'y go'shtinikidan ham kuchli bu baliqning qimmatligi tabiiy. Injiq forelning ozuqasi chet eldan keltiriladi. Yemishi o'zimizda ishlab chiqarilsa, teng barobar foydaga erishish bilan birga, baliqning tanbarxi arzonlashi mumkin. Forelchilik maktabini yaratgan namanganliklar ayni masala ustida bosh qotirayotgani shundan. Aslida, xonbaliq yetishtirishga qiziqish ortib borayotgan hozirgi paytda bu juda muhim. Zero, endi nafaqat Namangan, balki Farg'ona va Andijonda ham forelchilik maktabi vujudga kelishi mumkin. Ayniqsa, aholisi ko'p Andijonda bu faoliyatning yo'lga qo'yilishi ayni muddao.

XONOBODDA XONBALIQ YETISHTIRILADI

Davlatimiz rahbari shu yil Andijon viloyatiga tashrif chog'ida Xonobod shahridagi Yangi hayot mahallasida bo'lib, "...Har bir mahallaning o'z imkoniyatlari, an'analari, odamlarning xohish-istaklari bor. Mahalla uyushmasi va iqtisodiy kompleks vakillari ularni aniqlab, qo'llab-quvvatlash, aholini band qilish, daromad manbai yaratish mumkin", degan edi. Shunga binoan Xonobod shahridagi Kampirovot mahallasida 26 xonadonli baliqchilikka ixtisoslashtirish bo'yicha ishlar boshlandi.

Buning uchun dastlab "Har bir oila — tadbirkor" dasturi asosida o'zini o'zi ish bilan ta'minlash va qo'shimcha daromadga yo'naltirish yuzasidan aholi xonadonlari o'rganildi. "Andijonbaliqsanoat" MCHJ rahbari Baxtiyor Aripovning aytishicha, uyushma mutaxassislari xonadonlardagi hovuzlarning baliq yetishtirish talabari asosida qurilishini nazoratga oldi. 20-21-aprel kunlari baliq yetishtirish usuli bilan tanishtirish maqsadida Baliqchilik ilmiy markazi mutaxassislari ishtirokida ikki kunlik ilmiy-amaliy seminar o'tkazildi.

Birinchi kuni baliq va u yetishtiriladigan suv, yemishi, kasalliklari haqida umumiy tushuncha berildi. Keyingi kuni baliq yetishtiriladigan xonadonlar vakillari Namangandagi Norin daryosiga qarab yo'l oldi. Ishitirokchilar forel yetishtiruvchi "DIBI GROUP" baliqchilik fermer xo'jaligida

baliqning ikkidan eksport bo'lgunga qadar boqilishi jarayoni haqida ma'lumotga ega bo'ldi. Ming marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi, deganlari rost. Odamlar ko'zi bilan ko'rgan jarayonni eshitganidan ko'ra yaxshiroq eslab qolganini ta'kidladi.

Ayni paytda Kampirovot mahallasidagi xonadonlarda ham forel yetishtirila boshlandi. Albatta, birinchi yili hovuzlarning barchasi Baliqchilik ilmiy markazi va "Andijonbaliqsanoat" MCHJ mutaxassislari nazoratida bo'ladi. "Bu orqali minglab odamni ish bilan ta'minlash mumkin. Kelgusida Xonobodda forelchilik markazi tashkil qilinadi, eksportga ham keng imkoniyat ochiladi", deydi Baxtiyor Aripov.

— Shu paytgacha yonimzdagi mahallalarda baliqchilik bilan shug'ullangan fermer xo'jaliklari bo'lgan va hozir ham mavjud, — deydi "Kampirovot" MFY raisi Mansurjon Yusupov. — Endi mahallamizdagi 26 xonadonda forel baliq'i yetishtiriladi. Xonadonlarning aksariyati 6-8 sotixdan. Qulayligi shundaki, ularning barchasidan ariq o'tgan, toza suv oqib turadi. Forel uchun esa aynan shunday suv kerak. Buning uchun maxsus hovuzlar quriladi. Ish boshlash uchun shaxsiy mablag'i bo'lmagan oilalarga hokim yordamchisi tavsiyasi bilan imtiyozli kredit ajratildi. Yaxshi niyatda boshlayotgan ishimiz kutilgan natija beradi. Chunki borib ko'rgan joylarimizda baliq yetishtirayotganlarning sharoiti

biznikidan og'ir. Ular suv tortish uchun ko'p elektr energiyasi sarflayapti. Bizda esa bu muammo yo'q. Suvning o'zi shundoqqina xonadonlarga kirib, chiqib ketaveradi. Ozuqani esa uchqo'rg'onlik fermerlar yetkazib beradi. Eng muhimi, ular baliqlarimizni ham sotib olmoqchi.

Baliqboqarlar boshqa daromad manbalarini ham o'ylab topa boshladi. Ular baliqchilikda ham klaster yaratish ustida izlayapti. Shu kunlarda Andijonsoy bilan Shahrixonsoy o'rtasida baliq pishirib sotadigan joylar tashkil qilish ko'zda tutilyapti. Bu bir tomondan gastronomik va ekoturizm rivojiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan odamlarning ishli bo'lishini ta'minlaydi. 26 xonadonda yetishtiriladigan foreldan tashqari, baliqchilik xo'jaliklaridan sazan, amur kabi baliqlar ham sotib olinadi.

— Bir ishga astoydil ishonch bilan kirishgan inson, albatta, natijaga erishadi. Biz ham oilamiz bilan baliqchilikda o'zimizni sinab ko'rish va imkon qadar buning uddasidan chiqishga qaror qildik. Baliq boqishning sir-asrorini obdon o'rgatishdi. Qolaversa, eng tajribali baliqchilardan o'rganishimiz uchun sharoit qilib berildi. Jarayonni ko'rib, tushunmaganlarimizni o'sha yerning o'zida mutaxassislardan so'rab, bilib oldik. Tajriba sifatidagi ilk natijamiz yaxshi bo'lib, keyingi yildan ikki barobar ko'proq baliq yetishtiramiz, — deydi "Kampirovot" MFYda yashovchi Alimjon Rasulov.

Jarayon bilan tanishib, Kampirovot mahallasi odamlarining boshlagan ishi o'ngidan kelishi, mo'l hosil va daromaddan yuzi yorug' bo'lishiga astoydil tilak bildirdik. Keyingi yillarda Xonobod foreli o'ziga xos mahalliy brendga aylanib, mazasi va narxi bilan yurtdoshlarimizni o'ziga jalb etsa, ajabmas.

Munajat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Mavsum

BILGANGA TOMORQA KONI FOYDA

Ma'lumotlarga ko'ra, Surxondaryo viloyati issiqxonalar soni va maydoni bo'yicha respublikada yetakchi o'rinda turadi. Vohada ayni paytda 388 ming 433 ta oilaning 47 ming 260 gektar tomorqa yer maydoni mavjud. Ularda barcha turdagi poliz ekinlari yetishtirilayapti. Issiqxonachilik madaniyati shakllangan aholi daromadini oshishiga ham xizmat qilayotir.

2023-yilda Surxondaryo viloyatidan 113 million 823 ming 600 AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkichning salmoqli ulushi ham aynan tomorqa yer egalari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Viloyatda 2024-yil hosili uchun 71 ming 363 gektarda to'qsonbosti ekinlar ekilib, 1 million 100 ming tonna hosil olishga astoydil yeng shimarilgan. Albatta, bunda 200 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladigan Sho'rchi tumani dehqonlarining ham ulushi salmoqli.

Tumandagi 53 mahallaning 46 tasi muayyan yo'nalishga ixtisoslashtirilgan. Mahallalarda esa 21 ming 540 ta xonadon vakillari 2050 gektar tomorqada dehqonchilik bilan mashg'ul.

Ma'lumotlarga ko'ra, tumanda 2023-yilda kartoshkadan o'tacha 215 sentner, sabzavotdan 355 sentner, poliz mahsulotlaridan esa 250 sentner va dukkakli ekinlardan 20 sentner hosil olinishiga erishildi.

Amaldagi yilda ham 188 ming 528 tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilgan. Jumladan, 37 mingdan ortiq tomorqa yer egasi 3753 gektar yerda



76 ming 744 tonna ertachi hosil oldi. Shundan 22 ming 623 tonnasi qayta ishlashga va 37 ming 706 tonnasi eksportga jo'natilgan.

Bobur mahallasida yashovchi Abulqosim Nuraliyev qulupnay yetishtiradi. Uning xonadonida Janubiy Koreya texnologiyasi asosida ikkita — har biri 7 sotixli issiqxona barpo etilgan.

— Tomorqa madaniyatiga e'tibor xonadonning farovonligi degandir, — deydi Abulqosim Nuraliyev. — Tumanimizda har ikki xonadonning birida issiqxona bor. Avvallari yurtimizning boshqa viloyatlari, xususan, Farg'ona vodiysida bo'lganimizda tomorqachilikni ko'rib hayratimiz oshib, og'zimizning tanobi qochib kelardi. Endi o'zimiz ham shug'ullanib, inson harakat qilsa, har qanday maqsadni ro'yobga chiqarish mumkin ekanini anglab yetaymiz. Hozir yilning to'rt faslida ham tomorqada barcha sabzavotlar muhayyo.

Ayni kunlarda tumandagi Qoqaydi mahallasi hududidan to'rt yuz gektardan ortiq yer onlayn auktsion savdo orqali yoshlarga berilmoqda.

Sho'rchi tumani 60 mingdan ortiq yosh bo'lib, 1200 nafari ishsiz sifatida ro'yxatga olingan. Ularga 30 yillik muddatda yer berilib, dehqon xo'jaligini yuritish orqali daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlashga ko'maklashilmoqda.

Bugun sumkasini yelkasiga ortmoqlab, xorijga ishga ketib, biri ikki bo'lmagan, uyi — o'lan to'shagi ekanini yaxshi tushunib yetgan borki, yurtning o'zida qolib ham yaxshigina daromad topish va yashash imkonligini teran anglayapti. Yer olib dehqonchilik qilaman degan har bir yosh uchun esa imkoniyatlar yaratib berilyapti.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

9-MAY — XOTIRA VA QADRLASH KUNI

“Birortasiyam urushdan omon qaytmadi-ya...”.
Bu — besh o'g'lining urushda qahramonlarcha halok bo'lganidan ezilib o'tgan Zulfiya Zokirovaning armonli so'zlari. Ushbu hayotiy obraz yillar davomida otalari, farzandlari, aka-ukalarining qonli janglardan qaytishini ilhaq kutib o'tgan, mayib bo'lsa ham qaytganda ko'z yoshini tiya olmagan sabr-toqatli millionlab onalar, opa-singillar, kelinlar sabr-toqati, sadoqati, irodasining timsoli aslida...



Rustam BOYTO'RA, jurnalist

HECH QACHON O'ZGARMAS VA UNUTILMAS HAQIQAT

Mislsiz yo'qotish, talafot va musibat keltirgan Ikkinchi jahon urushida millionlab insonlar halok bo'lganini dunyo ahli esdan chiqargan emas. Faxshizm ustidan g'alaba qozonish, tinchlik o'rnatishda O'zbekiston xalqi ham barcha tinchlikparvar ellar qatori katta jasorat ko'rsatdi. Front ortida ham bukilmas iroda va matonat bilan mehnat qildi. Bularni ikki satrda ifodalab bo'lmaydi. Matonatu jasoratni ham, yo'qotish-u bunyodkorlikni ham tarix xotiralariga mangu muhrlab, eslamok kerak.

Ulkan talafot, yo'qotish va kurash manzarasi

Ma'lumotlarga ko'ra, Ikkinchi jahon urushi yillari O'zbekiston aholisi taxminan 6,5 million kishini tashkil etgan. Shundan ikki millionga yaqini jangga yuborilgan. Besh yuz mingga yaqini halok bo'lgan, to'rt yuz mingdan ziyod vatandoshimiz nogiron bo'lib qaytgan, 160 mingga yaqini bedarak ketgan. Tasavvur qiling: bu — ayollar, bolalar va qariyalarni hisobga olganda ham deyarli har uch kishidan bittasi qing'inbarot urushga yuborilgan, degani.

Jang bo'lgan hududlardan turli millatga mansub 1,5 milliondan ortiq kishi (asosan, bolalar va ayollar) ko'chirib kelingan. Xalqimiz ularga uyidan joy berib, borini baham ko'rgan.

Urush yillari O'zbekistondagi 300 ga yaqin korxonada harbiy mahsulot ishlab chiqarilgan, front hududidan ko'plab zavod va fabrika, muhim ishlab chiqarish korxonalarini, oliy o'quv yurtlari ko'chirib keltirilgan ham elimizning bag'rikengligi, mehnatkashligi va yuksak insoniyatini namunasi edi.

Urushdan omon qaytganlarning biri dehqon, o'qituvchi, yana boshqasi quruvchi, shifokor bo'lib xizmatini davom ettirdi. U davrdagi holat, ta'minat, vaziyat, ish juda og'ir bo'lsa-da, xalqimiz halol mehnat bilan oila boqib, el-yurt farovonligi uchun xizmat qilishda davom etdi. O'sha mehnatsevarlik, o'sha matonat, jasorat tinch davrda ham namoyon bo'laverdi.

Kelgusi yili urush tugaganiga sakson yil to'ladi. Ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda Ikkinchi jahon urushi va front orti qatnashchilari juda kam qolgan — 112 nafar.

Bu qing'inbarot urush qancha odamlarning, oilalarning taqdirini butunlay o'zgartirib yubordi, ruhiyatiga qattiq ta'sir ko'rsatdi. Buni ikki yil jang maydonlarida bo'lgan va Polshaning Visla daryosi bo'yidagi qattiq jangda yaralanib qaytgan otamning xattiharakati, ruhiyatida ham his etar edim. Afsuski,

bugun qishlog'imizda urush qatnashchilarining birotasi ham hayot emas.

O'sha davrda balog'at yoshiga yetgan, janglarda qatnashgan haqida yozuvchilar “yo'qotilgan avlod” degan ibora qo'llagan. Zero, ular balog'at yoshidan yo hayot, yo mamotga duch keldi. Ayni paytda keksalar, ayollar va bolalar ham og'ir sharoit, mashaqqatli mehnatdan tashqari sovuq xabar darakchisi bo'lgan “goraxat”dan qo'rqib, hadiksirab o'tdi. Qachon urush tugay ekan, degan xabarni tun-u tun kutib yashadi. Bolalar maktabni tashlab ketishiga to'g'ri keldi. Azonlab bir burda non uchun kartochka bilan navbatda turishga, dalada, zavodda ishlashga majbur bo'ldi. Ular betashvish, beg'ubor bolalik hissini tuymadi.

Frontdan qaytganlarning ko'pi esa ma'naviy yoki jismoniy majruh bo'lib qaytdi. Chunki hozirgina yonida turgan safoshining dushman o'qidan, bomba portlashidan halok bo'layotganini ko'rish, o'zi ham shu yoshdan dushmanga qarshi qurol olib jang qilishi ruhiyatiga juda qattiq ta'sir ko'rsatgani shubhasiz. Kun emas, oylar, yillar davomida shu dahshatlar ichida yashashga majbur bo'lgani esa alohida mavzu, albatta.

Yillar o'tib, ular ko'rsatgan qahramonlik, urushdan keyingi og'ir turmush, yashash uchun kurash haqidagi xotiralar qoldi. Tinchlik va osoyishtalik, erkin va farovon hayotni tiklashga umrini bag'ishlagan insonlarning yorqin xotirasi, insonparvarlik fazilatlarini bugungi avlod uchun odamiylikning namunasi bo'lib qolaveradi.



Adolat, matonat va xotira lahzalari

“Hayot qonuniyatiga ko'ra, vaqt o'tishi bilan ko'p narsa unutiladi, esdan chiqadi. Lekin bu yorug' dunyoda ulug' bir haqiqat borki, u hech qachon o'zgarmaydi, hech qachon eskirmaydi. Ya'ni Vatan va xalq ozodligi saodati yo'lida martlik va jasorat ko'rsatgan insonlar xotirasi hamisha barhayot yashaydi”, degan edi davlatimiz rahbari.

Bundan uch yil muqaddam poytaxtimizning Olmazor tumanida “G'alaba bog'i” va “Shon-sharaf” davlat muzeyi tashkil etildi. Bu haqida ommaviy axborot vositalarida ko'p aytili. Ushbu maskanning barpo etilishidan maqsad mohiyat e'tibori bilan martlik va jasorat ko'rsatgan ajdodlarimiz nomini abadiylashtirish, yurtimizda inson xotirasi muqaddas va aziz, inson qadri ulug' ekanini ta'kidlashga qaratilgan. Shu orqali yosh avlodni tinchlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, urush asoratlarini yoddan chiqarmaslik, ajdodlar xotirasini e'zozlashga undaydi.

Uni ziyorat qilish davomida hamyurtlarimiz ko'rsatgan jasoratini, ulkan yo'qotishlar ko'lamini, hatto konslagerda, qamalda qolganlar azoblarini, front ortidagilarning mashaqqatli mehnatini chuqurroq anglay boshlaysiz. Beixtiyor urush va tinchlik mohiyatini yanada teran his etasiz. Bu maskandagi minglab eksponatlar, yodgorliklar urush manzaralaridan so'zlaydi.



“Shon-sharaf” muzeyida muhim ma'lumotlar jamlangan. Keyingi yillardagi keng ko'lami izlanishlar, tadqiqotlar tufayli yangi ma'lumotlar, raqamlar kiritildi. Ilgari mamlakat arxivlarida yopiq turgan tarixiy hujjatlar batafsil qayta o'rganib chiqildi, xorijdagi arxiv tashkilotlari, muzeylar, olimlar bilan hamkorlikda izlanishlar olib borildi. 2020-yil 9-maygacha aniqlangan yangi ma'lumotlarga ko'ra, urushda ishtirok etganlar, halok bo'lganlar, yurtimizga evakuatsiya qilinganlar soni aslida, ilgari qayd etilganidan ancha ko'p bo'lgan. Bedarak ketgan deb kelingan ko'plab hamyurtlarimiz nomi, taqdiri tiklandi.

Xususan, hamyurtlarimizdan 301 nafari “Sovet ittifoqi qahramoni” unvoniغا sazovor bo'lgan. 70 nafari uchala darajadagi “Slava” (“Shuhrat”) ordeni bilan taqdirlangan, hamyurtlarimizdan 23 generalga ham “Sovet ittifoqi qahramoni” unvoni berilgan. Bu kabi yangi ma'lumotlar tariximiz, sha'nimiz va g'ururimizni yanada yuksaltirdi.

Shular qatori o'zbekistonlik jangchilarning xorijiy davlatlar orden va medallari bilan taqdirlangan ularning Yevropa mamlakatlarini ham faxshist bosqinchilaridan ozod qilishdagi jasoratini anglatadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan yangi izlanishlar, xalqaro miqyosdagi qidiruvlar ajdodlarimiz xotirasiga hurmatimiz abadiy ekanini dalolatlar.

Oradan o'tgan yillar suroni ham ularning jasorati, qahramonligi, el-yurt tinchligiga bag'ishlangan umr yo'llarini tariximiz sahifalaridan o'chirib keta olmadi. Chunki ularning nomi farzandlari, nevarachevalarini, ezgulik yo'lida xizmat qilayotgan vatandoshlarimiz qalbidan yillar o'tgan sari chuqurroq ildiz otib boraverdi.

Yurtimizda keksa avlod vakillarini, xususan, Ikkinchi jahon urushida qatnashgan va front ortida tun-u tun mehnat qilgan insonlarga alohida hurmat va ehtirom ko'rsatish, faxriylarni e'zozlash va qadrlash yuksak ezuq an'anaga aylangan. Biz ularning urushdagi va urush ortidagi qahramonligini abadiylashtirish, farzandlarimizni bugungi tinch va farovon hayotimizni qadrlovchi inson etib tarbiyalashimiz yuksak ma'naviy-ma'rifiy ishlarimiz davomi bo'lib qolaveradi.

Prezidentimizning “Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida”gi farmonida mamlakatimizda 9-may — Xotira va qadrlash kuni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanishi, shuningdek, Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, bugun ham safimizda turib, Vatanimiz obro'-e'tiborini yuksaltirishga, yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga hissa qo'shayotgan faxriylarni e'zozlash hamda faxshizm ustidan qozonilgan

2024-yil 8-may, 88-son

g'alabani 79 yilligi munosabati bilan urush qatnashchilari va nogironlarini moddiy rag'batlantirish nazarda tutilgan.

Farmonga ko'ra, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga 20 million so'm miqdorida bir martalik pul mukofoti topshiriladigan bo'ldi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Madaniyat vazirligi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg'armasi bilan birgalikda shu kunlarda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga ushbu pul mukofotini tantanali hamda bayramona vaziyatda topshirilishini ta'minlamog'qa.

— Insoniyat tarixining eng mudhish va og'ir davri — Ikkinchi jahon urushida jasur va martd ota-bobolarimiz, avvalo, oilasi, o'z ona yurti ostonasiga faxshizm balosini yaqinlashtirmaslik uchun jon olib, jon berib jang qildi, — deydi

O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg'armasi raisi o'rinbosari Shuhrat Usmonov. — Urushga safarbar etilmagan keksalar, ayollar va bolalar ham jang qilayotgan yaqinlari, yurdoshlarining sog'-omon, g'alaba bilan qaytishi uchun yillar davomida halovotidan voz kechib dala yoki korxonalarda mehnat qildi. Bularning hech birini esdan chiqarib bo'lmaydi. Bayram arafasida “Nuroniy” jamg'armasi va bo'limalri keksalarni, urush qatnashchilari va front faxriylarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan tadbirlarni o'tkazib kelmoqda.

Mangulikka daxldor fazilat

Insonni xotirlash, sinovli, mashaqqatli damlarda fidoyi bo'lish, nafaqat o'z hayoti, balki o'zgalari hayoti uchun kurashish chin umuminsoniy qadriyat, yuksak fazilat. O'sha urush yillarida O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan bir yarim million o'zga millat vakillari shu yerda ko'rgan xotirjamlik, mehr-oqibat, g'amxo'rlikni umrining oxirigacha eslab, minnatdorlik bilan so'zlab o'tdi. Ko'plarining farzandlari, yaqinlari bugun ham xalqimiz, yurtimiz haqidagi xotiralarni hayajon va minnatdorlik bilan eslaydi. Ular qatorida oddiy ishchidan tortib, bugun taniqli olim, san'atkorlarga bor.

Bu umuminsoniy fazilat bo'lish bilan birga biz uchun ajdodlarimiz xotirasini oldidagi burch, sha'nimiz. Ha, bugun ham urush yillari haqida badiiy-publististik asarlar, “Ilhaq”, “101”, “Matonat” kabi xalqaro miqyosda ham e'tirof etilgan badiiy filmlar, yangicha yo'nalishda sahna asarlari, yodgorlik obyektlari, fotoalbomlar yaratildi.

Ajdodlarni xotirlash, e'zozlash ularning nomlarini birgina tadbirlarda yodlag olish bilan cheklanmaydi. Yosh avlodning yaxshi ta'lim-tarbiya olishga intilishi, yosh-u keksaga chin insoniy munosabatda bo'lishi, el-yurt tinchligi, farovonligi uchun fidoyilik bilan mehnat qilishi ham ota-bobolar nomini ulug'lavsh, xotirasini e'zozlashdir. Bu birgina davr talabi bo'lib qolmay, hech qachon o'zgarmas va unutilmas haqiqatdir.

Oqlov

QARIYB 100 YILLIK ADOLAT TANTANASI

198 NAFAR SHAXSGA NISBATAN OLIY SUD JINOYAT ISHLARI BO'YICHA SUDLOV HAY'ATI KASSATSIYA INSTANSIYASINING OQLOV HUKMLARI CHIQRILDI

Bundan roppa-rosa 94-yil oldin sobiq O'zbekiston SSR Oliy sudi raisi lavozimida ishlagan Sa'dulla Qosimov va boshqalar (jami 7 kishi) o'sha davrdagi SSSR Oliy sudi jinoyat sudlov hay'atining 1930-yil 21-iyundagi hukmi bilan O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 63-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganlikda aybli deb topilgan. Ularga mol-mulkini musodara qilgan holda o'lim va ozodlikdan mahrum qilish jazolari tayinlangan edi.

Oliy sud jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati sud majlisida S.Qosimovning nabirasi F.Sa'dullayev tomonidan ushbu hukm ustidan berilgan kassatsiya shikoyati hamda Bosh prokuror o'rinbosari tomonidan ushbu jinoyat ishi yuzasidan keltirilgan kassatsiya protesti ko'rib chiqildi. Natijada S.Qosimov va boshqalarga nisbatan chiqarilgan ayblov hukmi bekor qilindi. Ular harakatlarida jinoyat tarkibi mavjud emasligi hamda jinoyi hodisa yuz bermagani sababli aybsiz, deb topilib, ozlandi. Shu tariqa adolat qaror topdi, yillar mobaynida yuzaga chiqmay kelgan haqiqat tantana qildi.

Bugun milliy o'zlikni anglash va haqiqiy tariximizni tiklash har qachongidan ham muhim. Mustabid tuzum tomonidan shafqatsiz qatag'on qilingan davlat va jamoat arboblari, ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot namoyandalari, oddiy kasb egasi bo'lgan minglab yurtidoshimizning nomlari va xotiralarini abadiylashtirish, jasorati va matonati misolida yosh avlodni vatanimiz, xalqimizga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Bu boradagi tarixiy ma'lumotlarni xolis va haqqoniy o'rganish mamlakatimiz

mustaqilligi qanday og'ir va mashaqqatli kurashlar bilan qo'lga kiritilganini, bugungi erkin, ozod va obod hayotimizni asrab-avaylab, qadrlab yashash kerakligini yanada chuqur anglashga xizmat qiladi.

Shu bois, tarixiy adolatni tiklash, mustabid tuzum davrida nohaq ayblangan, mol-mulki musodara etilib, o'zlari quvg'inu qatag'onga duchor etilgan ajdodlarimiz nomini oqlash yo'lida izchil ishlar qilinmoqda.

— Prezidentimizning 2020-yil 8 oktabrdagi “Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida”gi farmoyishi qabul qilingani bunga keng yo'l ochdi, — deydi Oliy sud matbuot kotibi Aziz Obidov. — Hujjat ijrosini ta'minlash maqsadida qatag'on qurbonlari merosini yanada chuqur o'rganish, xotirasini abadiylashtirish va bu sa'y-harakatarni muvofiqlashtirish uchun respublika ishchi guruhi tashkil etilgan. Ularning nomlarini tiklash va xotirasini abadiylashtirish bo'yicha “yo'l xaritasi” tasdiqlandi. Bu, o'z navbatida,



bu boradagi izlanishlar ko'lamini kengaytirish, mas'ullarga vazirlik va tashkilotlarning idoraviy arxivlaridan foydalanish imkoniyatini yaratdi.

Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishlari jarayonida aniqlangan, ayrim sabablarga ko'ra,

reabilitatsiya qilinmagan qatag'on qurbonlari nomlarini oqlash yuzasidan takliflar kiritish belgilangan.

Bundan tashqari, Oliy sudda muayyan sabablarga muvofiq, reabilitatsiya qilinmagan

qatag'on qurbonlari nomlarini oqlash va xotirasini abadiylashtirish masalalari bo'yicha ishchi guruh tuzildi.

Ishchi guruhning izchil faoliyati, ko'lami sa'y-harakati tufayli so'nggi yillarda sobiq tuzum davrida qatag'on qilingan 1031 nafar vatandoshimiz reabilitatsiya qilinib, oqlandi.

Oliy sudga mustabid tuzum tomonidan aksilinqilobiy maqsadlarda harakatlar va qurolli qo'zg'onlar, terrorchilik, banditizm va shponaj sodir etish, partiya tashkilotlarida aksilsho'ro faoliyatini yuritishda ayblangan 205 nafar shaxsga oid 12 ta jinoyat ishi kelib tushib, ishchi guruh tomonidan o'rganib chiqildi.

Bosh prokuror o'rinbosari tomonidan yuqorida ko'rsatilgan jinoyat ishlari yuzasidan Oliy sudning jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga kassatsiya tartibida protestlar keltirildi.

Joriy yil 6-may kuni Oliy sud raisi o'rinbosari Ikom Muslimov raisligida o'tkazilgan ochiq sud majlislarida ushbu protestlar ko'rib chiqilib, qanoatlantirildi hamda oqlov hukmlari chiqarildi.

Lutfulla SUVONOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

Taraqqiyot yo'li

DEMOKRATIK ISLOHOTLARNING
YANGI BOSQICHI

Boshlanishi 1-betda

— Kuchli parlament — demokratiya poydevori. Qolaversa, parlamentarizm eng dolzarb xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal etish, zamonaviy tahdid va xavf-xatarlarning oldini olishda muhim davlat hokimiyati institutidir. Shu bois, taraqqiyot yo'lini ko'zlagan har bir mamlakat parlament faoliyatini rivojlantirishga katta e'tibor beradi. Jumladan, mamlakatimizda ham bu borada qizg'in jarayon kechmoqda. Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi bo'lgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida milliy parlamentimiz faoliyati tubdan takomillashyapti.

Ushbu yo'nalishdagi asosiy maqsad va g'oyalarni ro'yobga chiqarish uchun davlat boshqaruvi tizimi modernizatsiya qilindi. Oliy Majlis palatalari faoliyati ham yildan yilga takomillashmoqda. Prezidentning parlamentga Murojaatnoma yo'lash instituti yangi O'zbekistondagi muhim voqe'likka aylanib, mamlakatimiz siyosiy tizimida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Xalq saylagan vakillik organlari — parlament va xalq deputatlari kengashlarining mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli, o'rni va ahamiyati qisqa muddatda tubdan o'zgardi. Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning vakolati bosqichma-bosqich kengaytirilib, parlament va jamoatchilik nazorati institutining yangi shakllari amaliyotga kirib keldi.

Bugun aynan parlament faoliyatida aholi manfaatini, huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, xalqni an'adan buyon o'ylantirib kelayotgan masalalarga tez muddatda yechim topish, muammolar tub ildizini chuqur tahlil qilish, eng muhimi, buni ishlab chiqilayotgan qonunlarda aks ettirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

— Qonun ijodkorligi yo'nalishidagi faoliyatni qanday baholaysiz? Bu borada keyingi yillarda qanday natijalarga erishildi?

— Jamiyatda inson manfaatiga xizmat qiladigan islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko'p jihatdan qonun ijodkorligiga bog'liq. To'g'risini aytish kerak, bundan 6-7 yil ilgari parlamentimizning bu boradagi salohiyati havas qilarli emas edi. Oliy Majlis palatalari yiliga, nari emas, 3 yoki 4 marta yalpi yig'ilish o'tkazardi. Deputatlar saylovchilari bilan bir yilda bor-yo'g'i ikki marta uchrashardi. Tabiiyki, bu qonunlarning hayotbaxsh bo'lishiga xalal berardi.

Hozir Qonunchilik palatasining yig'ilishi har hafta, Senat yig'ilishi har oyda o'tkazib kelinmoqda. O'tgan davrda xalq vakillari faoliyatida saylovchilar deputat oldiga emas, deputat saylovchilari huzuriga borishi shart, degan tamoyil ustuvor ahamiyat kasb etdi. Shu bois, aholi bilan doimiy muloqot sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

Huquqiy demokratik davlat, ochiq fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidagi tub islohotlar barcha soha qatori parlamentni haqiqiy demokratiya maktabiga aylantirishda ham samara berayotir. O'tgan yili umumxalq ovozi bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda parlamentning bu yo'nalishdagi faoliyatini kengaytirish bo'yicha muhim tamoyillar belgilandi. Bunda "avval shaxs, keyin jamiyat va davlat", "qonunlarning birdan bir manbai va muallifi xalq bo'lishi kerak" degan tamoyil asosiy o'rin egalladi.

Bu g'oyalarning hayotiy ijrosini ta'minlash maqsadida qonun loyihalarini joylarda aholi bilan keng muhokama qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Saylovchilar bilan uchrashuvlarda Qonunchilik palatasi deputatlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mohiyati hamda ahamiyatini xalqimiz, ayniqsa, yoshlarga atroflicha tushuntirdi. Bunda, keyingi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar va bu borada erishilayotgan natijalarni mustahkamlashda yangi tahrirdagi Bosh qonunimizning o'rni va rolini ochib berish, yangi qabul qilinayotgan qonunlarning mohiyatini aholiga sodda va xalqchil tilda tushuntirishga alohida e'tibor qaratildi.

Qonun ijodkorligi jarayonida olim va mutaxassislarining salohiyatidan unumli foydalanishga ham e'tibor qaratilyapti. Bu borada qo'mitalar huzurida olimlar, mutaxassislar, NNT vakillari ishtirokida ekspertlar guruhi shakllantirildi. O'tgan yili

parlament faoliyatida qanday o'zgarishlar yasamoqda?



ular tomonidan 40 dan ortiq qonun loyihalari tahlil qilindi va maromiga yetkazish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Bu yo'nalishdagi ishlarni butunlay yangicha asosda tashkil etish yuzasidan ko'rilgan choralar natijasida qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlarining qonun ijodkorligi jarayonidagi mas'uliyati oshirildi. Endi qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilinayotganda, qoida tariqasida, qonunchilik tashabbusi huquqi subyekti yoki uning vakili ma'ruza bilan chiqishi belgilandi. Bu esa qonun loyihasi birinchi o'qish jarayonidagi muhokamasini tom ma'noda jonlantirdi.

Yana bir yangilik — qonun loyihalarining xalqaro shartnomalar, O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rni yaxshilash bo'yicha tavsiyalarga mosligini o'rganish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, parlamentda to'g'ridan to'g'ri amaliyotga tatbiq etiladigan, ya'ni ijro uchun hujjat ishlab chiqishni talab etmaydigan qonunlar qabul qilishga e'tibor kuchaydi. To'g'risini aytganda, ko'pchilik parlamentning to'g'ridan to'g'ri amal qilish mexanizmi ega qonunlar ishlab chiqishiga shubha bilan qaragan edi. Parlament buning uddasidan chiqdi. Qonun ijodkorligi faoliyati samaradorligini yaxshilash borasidagi tizimli ishlar natijasida 2023-yilda quyidagi palata tomonidan qabul qilingan qonunlar soni avvalgi yillarga qaraganda birmuncha ko'paydi.

Masalan, 2022-yilda qabul qilinib, Senatga yuborilgan qonunlar soni 88 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 100 ta qonun (jami 131 ta qonun loyihasini o'z ichiga olgan) qabul qilindi, ma'qullash uchun yuqori palataga

shakliga asoslangan saylov tizimi joriy etildi.

Bola huquqlari himoyasining tashkiliy va institutsional asoslarini yanada mustahkamlash maqsadida Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) instituti tashkil etildi. Deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilib, qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to'g'risida"gi qonun bilan Bolalar ombudsmanining huquqlari, majburiyatlari, faoliyatining asosiy yo'nalishlari va kafolatlari tartibga solindi.

Sud-huquq sohasini tubdan isloh etishga doir islohotlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash borasida ham tizimli ishlar qilindi. Jumladan, sud qarorlarining qonuniyligi, asosliqligi va adolatligini tekshirish tartibi yanada takomillashirildi. Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslar hamda Jinoyat, Iqtisodiy va Fuqarolik protsessual kodekslariga sudning qarori, ajrimi ustidan shikoyat berish masalasida yangi institut — sud ishlarini taftish tartibida ko'rib chiqishni ko'zda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

— Qonunlar xalqchil bo'lishi uchun qanday mezonlarga amal qilinayapti?

— Bunda, avvalo, xalqni tinglash, aholi

mingdan ziyod uchrashuv o'tkazilgan. Ularda yuz mingdan ziyod fuqaro, shu jumladan, 9,5 mingdan ortiq tadbirkor bilan bevosita muloqot tashkil etildi.

Har oyda deputatlarning saylovchilar bilan uchrashuvi yakunlari tahlil qilinib, mavjud qonunlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, muammolarni hal qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Yana bir muhim jihat, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiq, qonunchilik tashabbusi subyektlari ham o'zgardi. Endi qonunchilik tashabbusi huquqiga ega subyektlardan tashqari, O'zbekiston Respublikasining saylov huquqiga ega bo'lgan, yuz mingdan kam bo'lmagan fuqarosi, Oliy Majlis Senati, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga kiritish huquqiga ega bo'ldi. Bu chora-tadbirlar ham qonunlarning xalqchil bo'lishida muhim omil bo'lib xizmat qilyapti.

— Parlament nazorati institutining faoliyati qoniarlimi?

— Parlament nazorati davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan javobgarligini oshiruvchi eng muhim institutdir. Dunyo parlamentarizmi tajribasida



Yana bir yangilik — qonun loyihalarining xalqaro shartnomalar, O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rni yaxshilash bo'yicha tavsiyalarga mosligini o'rganish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

jo'natilgan. Shu bilan birga, qabul qilingan qonunlar orasida hajm jihatdan katta, davlat va jamiyat hayotidagi dolzarb masalalarning huquqiy asoslarini ta'minlash, xalqimiz farovonligini oshirish, aholiga yengilliklar yaratish, huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar salmog'i ham ortgan.

Taraqqiyotimizning fundamental asoslarini o'zida mujassam etgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida sohalaridagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha keng ko'lamli ishlar bajarilmoqda. Jumladan, Qonunchilik palatasi tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz va ushbu strategiya doirasidagi tub islohotlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, Qonunchilik palatasini shakllantirishning yangi tartibi, ya'ni majoritar-proporsional

bilan muloqot qilish tizimi yo'lga qo'yilishi nihoyatda muhim. Bugun yurtimizda bu borada yangicha huquqiy va tashkiliy asoslar yaratildi. Mamlakatimizdagi har bir muhim loyihaga va dasturlarni ro'yobga chiqarishda xalq bilan barmaslahat ish yuritish muhim mezoniga aylandi. Jumladan, deputatlarimiz faoliyatida ham bu jihatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Avvallari deputatlar mahalliy hokimliklardagi kabinetlarda fuqarolarni qabul qilgan bo'lsa, endi uyma-uy yurib, xalqning ahvoli bilan bevosita tanishish, fikri va muammolariga quloq tutish, shundan kelib chiqib qonun loyihalarini ishlab chiqish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Bundan tashqari, deputatlar faoliyatini asosan, joylarda yuritish, aholi bilan doimiy muloqot qilish, qo'mitalarning nazorat-tahlil tadbirlarini ko'proq hududlarda o'tkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Misol uchun, o'tgan yili shu yo'nalishda besh mingdan ko'proq xonadonga borilgan va joylarda to'rt

bunday institutning ko'plab shakli bor. Ular ichida eng samaralisi byudjetni qabul qilish va ijrosini nazoratga olish. Bu jahon amaliyotida parlament nazoratining o'zagi sanaladi.

Konstitutsiyaviy islohotlar natijasida davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish, Hisob palatasi hisobotini ko'rib chiqish kabi vakolalar bevosita xalq tomonidan to'g'ridan to'g'ri saylanadigan Qonunchilik palatasiga o'tkazildi. Bugun mamlakatning bosh mohiyaviy hujjati — Davlat byudjetining samarali bajarilishini ta'minlash, byudjet mablag'ining maqsadli sarflanishi ustidan ta'sirchan nazorat o'rnatishda parlamentning roli tobora ortib bormoqda.

Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarini ko'rib chiqish jarayonida xalq vakillari byudjet mablag'i hisobiga ijtimoiy sohani rivojlantirish, ijtimoiy infratuzilma obyektlari qurish va ta'mirlash, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi muhim soha va tarmoqlarga ajratilayotgan mablag'ning o'z vaqtida hamda maqsadli sarflanishini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratadi.

Bundan tashqari, parlament faoliyati tarixida ilk bor 2018-yilda Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining deputatlar savollariga javoblarini eshitish — "Hukumat soati" instituti joriy etildi. 2019-yildan Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining



Har oyda deputatlarning saylovchilar bilan uchrashuvi yakunlari tahlil qilinib, mavjud qonunlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, muammolarni hal qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

bog'liq qator masalalarni hal etish choralarini ko'rilgan.

Shuningdek, hukumat a'zolarining deputatlar savollariga javoblarini eshitish bo'yicha 8 marotaba "hukumat soati" o'tkazilgan. Ularda hukumat a'zolari aholi bandlegini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, energetik barqarorlikni ta'minlash, transport xizmati ko'rsatish tizimini yanada takomillashirish kabi jamiyatdagi dolzarb masalalar yuzasidan deputatlarning savollariga javob bergan.

Qo'mitalarning nazorat-tahlil faoliyati ham takomillashyapti. O'tgan bir yilda Qonunchilik palatasi qo'mitalari tomonidan 177 ta nazorat-tahlil tadbiri o'tkazilgani buning isbotidir.

— Parlament faoliyatini ilmiy, axborot-tahliliy jihatdan ta'minlashning institutsional asoslari xususida ham to'xtalib o'tsangiz.

— Bu yo'nalishda institutsional asoslar yaratilgan va samarali faoliyat yuritib kelyapti. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiq, parlamentimiz faoliyatidagi o'zgarishlar ushbu institut faoliyatini ham takomillashirishni taqozo etdi. Shundan kelib chiqib, 2023-yilda Oliy Majlis huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti negizida Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti tashkil etildi. Institutni tashkil etish jarayonida jahon tajribasi, 50 dan ziyod mamlakat amaliyoti o'rganildi. Ayni vaqtda institut huzuridagi ilmiy-eksport kengashining 16 a'zosi bor. Ularning 12 nafari fan doktori, professor, to'rt nafari falsafa doktori.

O'tgan qisqa muddatda institut qonun loyihalarini yuzasidan 150 dan ortiq ilmiy xulosa, axborot-tahliliy va boshqa materiallar tayyorlagan. Xususan, Qonun ijodkorligi faoliyati dasturi loyihasi ishlab chiqildi va parlament palatalari tomonidan shu yil fevralda tasdiqlandi. Shuningdek, 2017-2023-yillarda qabul qilingan 135 ta yaxlit qonun xatodan o'tkazilib, 23 ta qonundagi 41 ta havolaki normani amalga oshirish bo'yicha qonunosti hujjatlarini qabul qilinmagani aniqlandi va ular bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Institutimiz olimlari, shuningdek, parlament nazorati tadbirlarida ham qatnashib kelmoqda. Ilmiy-amaliy ishlar jarayonida yurtimiz va xorijdagi yigirmadan ziyod ilmiy muassasa bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Bu ilmiy izlanishlarimiz samaradorligini oshirish barobarida, parlamentarizm rivojida ham o'ziga xos istiqbol ochmoqda.

Ayni yo'nalishdagi salmoqli vazifalar xalq vakillari bilan bir qatorda ilmiy jamoamiz zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Buning uchun ilmiy salohiyat va imkoniyatimiz yetarli. Bugun bizdan talab etiladigan asosiy vazifa tashabbuskorlik, izlanish va doim olg'a intilish. Ana shu jihatlarni faoliyatimizning asosiy mezoniga aylantirish orqali ko'zlangan maqsadlarga, albatta, erishamiz.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Bahor XIDIROVA suhbatlashdi.

Kun mavzusi

INFLYATSIYA PASAYISHDA DAVOM ETADI (MI?)

Inflyatsiya ilmiy jihatdan umumiy iste'mol mahsulotlari va xizmatlar narxining oshishi, deya ta'rif beriladi. Unga taklif, talab va import omillari ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish xarajati ortsa, mahsulot narxi oshadi va taklif inflyatsiyasini yuzaga keltiradi. Boshqa tomondan, aholi daromadi o'sishi bozordagi mahsulot va xizmatlarga ehtiyojni oshiradi. Bu, o'z navbatida, talab inflyatsiyasiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, milliy valyutaning qadrsizlanishi import qilinadigan iste'mol tovarlari narxining qimmatlashuviga olib keladi va import inflyatsiyasini hosil qiladi.

Mutaxassislar fikricha, inflyatsiya faqat tovar va xizmatlar narxi o'sishi hamda aholi daromadi kamayishini ifodalovchi ko'rsatkich emas. Bu keng ma'nodagi iqtisodiy jarayondir. Shu bois, ular bir-biri bilan bevosita bog'liq va o'zaro ta'sir qiladi.

Mavsumiy omillar va iste'mol narxi

Umumiy inflyatsiya joriy yil boshidan pasayishda davom etib, mart oyida yillik 8 foizni tashkil etdi. Bunda oziq-ovqat tovarlari inflyatsiyasida sezilarli pasayish ro'y berdi. Oziq-ovqat tashqi bozordagi narxning tushishi import inflyatsiyasiga pasaytiruvchi ta'sir ko'rsatdi.

Iqtisodiyotda yuqori talab saqlanib qolayotgani hamda tartibga solinadigan ayrim narx va tariflarning oshirilishi tufayli xizmatlar inflyatsiyasi so'nggi oylarda barqaror o'sib bormoqda.

Keyingi paytda bazaviy inflyatsiya sezilarli sekinlashib, mart oyida yillik 7,6 foizni tashkil etdi va yil boshidan buyon umumiy inflyatsiya darajasidan pastroq shakllangani e'tibomli tortadi. Markaziy bank buni iqtisodiyotda inflyatsion holat yaxshilanib, monetar omillar ta'siri kamayib borayotgani bilan izohlaydi. Binobarin, oxirgi ikki yilda teskari holat, ya'ni bazaviy inflyatsiya umumiyga nisbatan yuqori shakllanib kelgan edi.

Shu o'rinda bazaviy inflyatsiya mohiyatiga aniqlik kiritib o'tsak. U umumiy inflyatsiyaning bir qismi bo'lib, ma'muriy hamda mavsumiy omillarning narx ta'sirini hisobga olmaganda, tovar va xizmatlar qiymatining erkin

va kichik tadbirkorlik subyektlari yilda bir marta hisobot taqdim etadi.

Endi boshqa raqamlarga e'tibor qaratsak. Bu tovar va xizmatlar narxi o'sayotgan yoki pasayayotgan bir sharoitda mamlakatimiz aholisi ishlab topgan pulni ko'proq nimaga sarflamoqda, degan savolga oydinlik kiritadi. Soliq qo'mitasi fiskal cheklarga tayanib ma'lum qilishicha, 2024-yilning dastlabki choragida metan gazning umumiy realizatsiya summasi — 3,4 trillion, AI-80 markali benzin — 2,6 trillion, aviachipta (xalqaro) — 2,3 trillion so'mni tashkil etgan. Ulardan keyingi o'rinlarda AI-92 markali benzin (1,2 trillion so'm), 1-navli bug'doy uni (1,1 trillion so'm), uyali telefon (638,3 milliard so'm), fast fud (613 milliard so'm), kungaboqar yog'i (543,1 milliard so'm), asosiy go'shli taomlar (470,2 milliard so'm), pishiriqlar (427,4 milliard so'm) turadi.

Budget taqchilligi ta'siri

Konsolidatsiyalashgan byudjet davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti, budget tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armasi hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi (suveren fond) mablag'larini qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjetining 2024-yilgi daromadi 375 trillion so'm va xarajati 427,6 trillion so'm, taqchilligi 52,6 trillion so'm yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foiz miqdorida etdi belgilangan. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotiga ko'ra, joriy yil birinchi choragida



o'zgarishini o'zida aks ettiruvchi ko'rsatkich. Ammo ba'zi tovar va xizmat narxlarining narxi davlat tomonidan belgilanadi hamda tartibga solinadi. Meva-sabzavot, suv, gaz, elektr energiyasi shular jumlasidan.

Iste'mol savatidagi ayrim tovar va xizmatlar narxi tartibga solinishi umumiy inflyatsiya darajasiga ta'sir qiladi. Ular ta'sir etgani uchun bu o'zgarishlar bazaviy inflyatsiyani hisoblashda qo'llanmaydi. Shu bois, u mamlakatdagi inflyatsiya darajasining muayyan davrini yaqqolroq ifoda etadi.

Statistika agentligi ma'lumotiga ko'ra, mamlakatimizda yanvar-aprel oylarida iste'mol narxi 2,59 foiz oshdi. Jumladan, o'tgan oyda 0,93 foiz qimmatlashuv kuzatildi. Bu mart oyidagi kichik o'sishga qaramay, avvalgi yillarga nisbatan sezilarli darajada past ko'rsatkichdir. Masalan, o'tgan yili aprel oyida bu miqdor 11 foizga yetgan edi.

Ahaliyatni tomoni, aprel davomida oziq-ovqat mahsulotlari qiymati 0,4 foizgacha tushdi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan uch barobar past, degani. Narx o'sishi bo'yicha meva (+3 foiz) yetakchilik qildi. Ayni keza sut mahsulotlari 2,7 foiz, sabzavot 1,2 foiz arzonladi. Yillik hisobda oziq-ovqat narxi 7 foiz ko'tarilgan.

Ishlab chiqarilgan mahsulot narxining o'sish sur'ati o'yiga 1 foiz, yillik hisobda esa 7,7 foizni tashkil etdi. Kiyim-kechak va poyabzal narxi deyarli o'zgarishsiz va yil davomida mos ravishda 5,8 va 5,5 foiz ko'tarildi.

Xizmat ko'rsatish sohasida inflyatsiyaning keskin tezlashuvi kuzatildi. Aprelda 1,8 foizgacha va yillik 10,8 foiz qimmatladi. Umumiy ovqatlanish korxonalarida narxlar mos ravishda 0,9 va 17,9 foiz, mehmonxonalarda 0,2 va 19,5 foiz oshgan. Temir yo'l chiptasi aprelda 3,2 foiz, yilning o'tgan davrida esa 37,8 foiz ko'tarilgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, birinchi chorak yakuni bo'yicha nominal ish haqining o'sish sur'ati yillik 19,8 foizni, inflyatsiyaning hisobga olinganda real 9,8 foizni tashkil etib, 4 million 920 ming so'mga teng bo'lgan. O'rtaacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga qo'shimcha va rag'batlantiruvchi to'lovlar, mukofot puli, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va kasaba uyushmasiga ajratmalar kiradi. Uni hisoblashda qishloq xo'jaligi korxonalarini va kichik biznes bo'yicha ma'lumotlar hisobga olinmagan. Chunki fermer xo'jaliklari

budget taqchilligi 19,8 trillion so'mdan oshgan. Bu daromad o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,8 foiz, xarajat esa 19,3 foiz o'sganini namoyon etadi.

Markaziy bank raising yuqorida e'lon qilingan ma'ruzasida qayd etilishicha, budget xarajatining yuqori darajada oshishi monetar ko'rsatkichga, makroiqtisodiy barqarorlik va eng muhimi, inflyatsiyaga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

"Inflyatsiyani pasaytirish iqtisodiyot sektoridagi barcha idoralarning birinchi vazifasidir. Bu borada iqtisodiyot va moliya vazirligi barcha zarur chorani ko'ryapti. Har hafta kamida bir marta bu masalani muhokama qilamiz. Xavotirlar o'rinni. Birinchi chorakda shakllangan defitsit yana davom etishi mumkinmi? Birinchi chorakda daromad pasayishi va xarajat oshishi bir oz yuqori bo'ladi. Bu yil ham shu tarzda boshlandi. Hukumatning hamma sa'y-harakati defitsitni bu yil 4 foiz darajasida ushlab qolishga qaratilgan", deyildi ma'ruzada.

Birinchi chorakda iqtisodiyot va moliya vazirligi 11,2 trillion so'mlik davlat obligatsiyasini muomalaga kiritdi. Bu o'tgan yilning shu davriga (4,7 trillion) nisbatan qariyb 2,5 barobar ko'p.

"Birinchi chorakda budget xarajati o'tgan yilga nisbatan ancha oshdi. Bu davlat tomonidan subsidiyalangan energiya importi hajmi o'sishi bilan bog'liq. Budget daromadining o'tkaziladigan qoldig'i mavjud. 2023-yilda bu mablag' xarajati qoplashga yo'naltirilgan. Joriy yilda mazkur mablag' bimmuncha kam bo'ldi. Hukumat 11 trillion so'm mablag' jalb qildi. Bu yerda biz shunga o'shshah va holatni ko'meyapmiz. Chunki ichki pul bozorida ham muayyan chegara mavjud. Hukumat bu chegaradan ortiq mablag' jalb qila olmaydi. Yilning qolgan davrida ham ushbu tendensiya davom etishini kutmaymiz", deydi Markaziy bank rahbari.

Prognoz va amaliy natijalar

Makroiqtisodiy rivojlanishning asosiy senariysi doirasida 2024-yilda inflyatsiya darajasi 8-9 foiz atrofida bo'lishi prognoz qilingan edi. Lekin aholi va tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari joriy va prognoz darajasidan yuqorigacha qolmoqda. Shu bilan birga, aprel oyidan bir qator tovar va

xizmatlarga QQS joriy etilishi ta'sirida inflyatsion kutilma sur'ati oshishi, 1-maydan tartibga solinadigan ayrim tariflarning erkinlashtirilishi umumiy inflyatsiyaga bir martalik ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yuqoridagi omillar hisobga olinib, makroiqtisodiy prognozlarga binoan, 2024-yil yakunida umumiy inflyatsiya prognozi 9-11 foiz doirasida bo'lishi taxmin qilinmoqda. Bazaviy inflyatsiya ko'rsatkichi 7-8 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Markaziy bank boshqaruvining yaqinda bo'lib o'tgan yig'ilishida asosiy stavkani yillik 14 foiz darajasida saqlab qolish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu oxirgi bir yilda stavkani o'zgarishsiz qoldirish orqali pul-kredit sharoitida muayyan qat'iy darajasi yuzaga kelganini namoyon etadi. Shu bois, bugun pul bozorida real stavka 5,5 foizni tashkil qilayapti.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning birinchi choragida iqtisodiyotning o'sish sur'ati 6,2 foizgacha bo'ldi. Xizmat ko'rsatish, chakana savdo aylanmasi va qurilish sohasidagi yuqori o'sish sur'atlari, shuningdek, ishlab chiqarish va tog'-kon sanoati sohasidagi investitsion faollik oshishi kuzatildi.

Dollar kursi so'mga nisbatan keskin oshishda davom etmoqda. O'tgan yil avvalida bir dollar 11 ming 225 so'mga teng bo'lsa, 2023-yil 31-dekabrda kelib, 12 ming 338 so'mni, 2024-yilning 31-martida 12 ming 620 so'mdan sal ortiqni tashkil etdi.

So'mning real almashuv kursini dinamikasi yanvar-mart oylarida 0,9 foiz qadrsizlanib, uzoq muddatli trend doirasida shakllandi. Tashqi savdo bo'yicha hamkorlarning milliy valyuta kursi va inflyatsiyasi bo'yicha prognozlarni inobatga olinganda real almashuv kursiga nisbatan bosim kuzatilmayapti.

Bu jihatlar Markaziy bank raising joriy yil avvalida aytgan so'zlarini yodga soladi:

"Pulning qadrsizlanishi Markaziy bankning xatti-harakatiga bog'liq emas. Kursni bor, talab va taklif belgilaydi. Markaziy bank hech qachon kurs prognozini bermagan. Iqtisodiy salohiyatimiz oshsa, tashqi iqtisodiy aloqalardagi o'mimiz, mavqemiz ko'tarilsa, kurs qadrsizlanishi shuncha past bo'ladi. Faqat kutilayotgan kutilmalar va ta'sirlarni aytib o'tamiz. Har yili so'mimiz qadri o'rtacha 1,5 barobar oshyapti. Oxirgi 3 yilda milliy valyutamiz qadri 2 million ekvivalentdan 7 million ekvivalentga o'sdi. Bu, umumiy aholiga nisbatan olib qarasaq, kam. Biroq muayyan jihatdan aholining ishonchi oshmoqda".

Markaziy bank inflyatsiyaning 5 foizli targetiga erishishga qaratilgan qat'iy pul-kredit siyosatini yuritish jarayonida iqtisodiyotdagi talab va taklif mutanosibligi, inflyatsion kutilma hamda tarkibiy islohotlar sur'atiga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidlab keladi.

Jahon tajribasiga ko'ra, markaziy banklar tomonidan inflyatsion targetlash rejimiga o'tishning asosiy tamoyillaridan biri — inflyatsiyaning aniq maqsadli ko'rsatkichini belgilab olish va unga (targetga) erishish uchun barcha zaruriy chora-tadbirlarni ko'rib borishdir.

"Target" o'zbekchaga o'girilganda "maqsad" degan ma'noni bildiradi. Inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi (target)ga erishish uchun samarali vosita sifatida pul-kredit siyosati mexanizmlari bosqichma-bosqich ushbu rejimga o'tkazildi. Ushbu usul jahondagi 40 dan ortiq mamlakatda qo'llab kelinmoqda.

Xalqaro tajribaga ko'ra, inflyatsion targetlash rejimini amalga oshirish uchun, avvalo, qator shartlarni bajarish zarur.

— Buning uchun inflyatsiyaning doimiy targetini belgilash va omillari hamda ko'zlangan inflyatsion maqsad haqida aholini mutataam qarab qilib borish lozim, — deydi iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent Zamir Xolmahmadov. — Inflyatsiya jarayonini boshqarish va pul bozorida iqtisodiyotni tartibga solish uchun pul-kredit siyosati bo'yicha vositalardan keng foydalanish kerak. Bu borada obyektiv qaror qabul qilish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlar, yo xo'jaliklari, tadbirkorlik, davlat boshqaruvi sohasini batafsil makroiqtisodiy tahlil qilish hamda ichki va tashqi bozordagi ochiq ma'lumotlarni hisobga olingan holda prognozlashtirish zarur.

Markaziy bank 2020-yildan targetlash rejimiga faol o'ta boshladi hamda doimiy maqsadli ko'rsatkich sifatida 2023-yilda inflyatsiyaning 5 foizli darajasiga erishish vazifasini belgiladi. So'ng bu maqsad keyingi yilga surildi.

O'tgan yili 26-oktabrda o'tkazilgan yig'ilishda Pul-kredit siyosatining 2024-yil va 2025-2026-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari konseptual jihatdan ma'qullanib, asosiy senariy bo'yicha inflyatsiyaning doimiy 5 foizli targetiga erishish davri 2025-yilning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelishi bo'yicha asoslar yuzaga kelayotgani ma'lum qilindi.

Muqobil senariy doirasida, asosiysidan farqli ravishda, tashqi sharoitning birmuncha noqulay shakllanishi ichki narxga qo'shimcha bosim yaratishini inobatga olib, 2024-yilda inflyatsiya darajasi 9-10 foiz atrofida bo'lishi kutilayapti. Bunda doimiy targetga erishish davri uzoqroq cho'zilib, 2025-yilda inflyatsiya 7-8 foiz atrofida bo'lishi va 2026-yil yakuniga kelib, 5 foizgacha pasayishi prognoz qilingan.

Xususiy lashtirish

Xususiy lashtirish iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirib, mulkdorlar ko'payishini ta'minlaydi. Shu maqsadda yurtimizda keng ko'lami ishlar qilinmoqda. Xususan, 2002-2021-yillarda davlatning 1,2 trillion so'mlik aktivlari sotilgan bo'lsa, 2022-yilning o'zida bu ko'rsatkich 11,3 trillion so'mga yetdi. Bir yilda o'n yil qilingan ishlardan qariyb 10 karra yuqori natijaga erishildi.

BEKOR TURGAN BINO O'RNIDA YIRIK KORXONA Investorlarga berilayotgan imkoniyat samarasi

2020-2023-yillarda esa davlatga tegishli 4,5 mingta aktiv xususiy lashtirish natijasida 20 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratildi. Xususiy lashtirilgan korxonalarining soliq tushumi 1,3 barobar, ser' aktivlari esa 1,5 barobar oshdi. Masalan, bir necha yil ishlagan Andijon tajriba-sinov zavodi negizida 18 million dollar investitsiya hisobiga to'qimachilik korxonasi tashkil etilib, mingta ish o'rni ochildi, 40 million dollarlik mahsulot eksport qilindi. Qo'qon superfosfat zavodi xorijlik investitsiya berilishi tufayli 40 million dollar investitsiya kiritilib, ishlab chiqarish hajmi 4 barobar oshgan. "Ipoteka bank"ning 324 million dollarga hamda davlatning "Coca-Cola" kompaniyasidagi ulushi 252 million dollarga sotilgan ham oxirgi yillardagi yirik bitimlar hisobiga kiradi.

Tahlillar bu sohadaagi ishlar hamma joyda ham bir maromda ketmayotganini ko'rsatayapti. Misol uchun, Toshkent viloyatida 112 ta obyekt sotilib, ular negizida 150 ta tadbirkorlik subyekti va mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratilgan holda, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarida avvalgi yilda sotuvga chiqarilgan mulklarning 30 foizi ham sotilmagan. Umuman, 2023-yil avvalida davlatga tegishli 30 mingdan ortiq obyektada o'tkazilgan xatlov qilinadigan ishlar ko'pligini ko'rsatdi.

Shu bois, Vazirlar Mahkamasining o'tgan yil 10-martdagi "Davlat mulkini xususiy lashtirish va ijaraga berish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi qarori bilan davlat aktivlarini sotuvga chiqarish tartibi soddalashtirilib, muddati qisqartirildi. Ushbu hujjatga ko'ra, davlat ulushi va ko'chmas mulk obyektlari "E-aksion" elektron savdo platformasiga chiqarilganda yoki xalqaro audit kompaniyasi baholaganda ular hisobotini majburiy ekspertizadan o'tkazish talabi bekor qilindi. Savdoda davlat ulushi va ko'chmas mulk obyektlari bir talabgor mavjud bo'lsa, u bilan shartnoma tuzish amaliyoti bekor qilinib, davlat obyektlarini ijaraga berish muddati 1-yildan 3-yilgacha, majburiyat bajarilganda esa 5-yildan 6-yilgacha etib uzaytirildi.

Shu bilan birga, hokim yordamchilarining onlayn buyurtmanomasi asosan, hududi 2 ming kvadrat metrgacha bo'lgan davlat ko'chmas mulk obyektlarini sotishdan tushgan tushum Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasiga to'liqligicha o'tkazildi. Hududi 10 ming kvadrat metrgacha bo'lgan obyektlar sotilishidan tushgan tushumning 90 foizi mahalliy byudjet (45 foizi viloyat byudjetiga, 45 foizi obyekt joylashgan tuman (shahar) byudjetiga) qaytariladi. Bundan tashqari, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi qaroriga asosan, davlat ko'chmas mulk obyektlari bilan birga avtotransport va asosiy vositalarini ham o'tkazish tartibi joriy etildi.

— Prezidentimiz yaqinda "Davlat mulkini xususiy lashtirish to'g'risida"gi qonuni imzoladi, — deydi huquqshunos Shokir Toshqulov. — 1991-yili qabul qilingan "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to'g'risida"gi qonun ma'nan eskirib, bugungi talablariga javob bermay qolgan, 20-martdan ortiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan edi. Qolaversa, avvalgi qonunda chet elda keng qo'llanadigan xususiy lashtirish usullari, ochiqlik va shaffoflik talablarini davlat organlarining xususiy lashtirish sohasidagi ayrim vakolatlari nazarda tutilmagan. Xalqaro tajribani olsak, xususiy lashtirishning 4 tadan 10 tagacha uslub qo'llanadi. Jumladan, Germaniyada 6 ta, Chexiyada 7 ta va Polshada 10 ta.

Shu bois, eski huquqiy-me'yoriy hujjat bekor qilinib, to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi yangi "Davlat mulkini xususiy lashtirish to'g'risida"gi qonun amaliyotga joriy etilmoqda.

Uni ishlab chiqishda sohaga oid xalqaro tajriba, xususan, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, "Indecon Consulting" kompaniyasi, "KPMG" kompaniyasi, polshalik ekspertlar hamda boshqa qator malakali maslahatchilar taklifi inobatga olingan.

Yangi qonunda davlat ko'chmas mulk obyektlari, davlat ulushi (aksiyalari, ulushi), davlat unitar korxonalarini va muassasalari xususiy lashtiriladigan obyektlar sirasiga kiritilgan. Davlat mulki to'liq yoki qisman xususiy lashtirilishi mumkin. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi mazkur sohada vakolatli organ. Xususiy lashtiriladigan mulkning boshlang'ich qiymati agentlik yoki hududiy boshqarmalari tomonidan belgilanadi.

Davlat mulkini xususiy lashtirish jarayoni auktsion, tanlov savdolari, muzokaralarga ommaviy taklif qilish, raqobatga asoslangan muloqot, birja savdolari, davlat unitar korxonasi yoki muassasasini mulkiy majmau tarzida xo'jalik jamiyatining ustav fondi (ustav kapitali) ga davlat ulushi sifatida kiritish, shunday obyektlarni keyinchalik xususiy lashtirish sharti bilan ijaraga berish kabi 8 ta usuldan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

Uning ter orada amaliyotga kiritilishi davlat mulkini xususiy lashtirish jarayonini chuqurlashtirish, investitsiya jalb etish, samarasiz faoliyat ko'rsatayotgan davlat mulki obyektlari negizida yangi loyihalarni amalga oshirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.



Davlatimiz rahbari uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqida xususiy lashtirish to'g'risidagi qonun qabul qilinib, bu borada yangi dastur ishga tushirilganini alohida qayd etdi. Binobarin, shu yil 16-yanvar kuni iqtisodiyotni rivojlantirish masalalarini bo'yicha o'tkazilgan videosektor yig'ilishida Vazirlar Mahkamasiga yangi xususiy lashtirish dasturini tayyorlash vazifasi berilgan edi. Shunga asosan, davlat ishtirokidagi korxonalar ulushi va ko'chmas mulk obyektlari samaradorlik jihatidan tahlil qilib, ushbu hujjat ishlab chiqildi.

— Prezidentimizning 2024-yil 19-apreldagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan tasdiqlangan dasturdan davlatning ommaviy savdoga chiqariladigan 247 ta aksiya paketi ulushi, davlat ishtirokidagi korxonalarining 1028 ta ko'chmas mulk obyekti, mahalliy fond bozorida aksiyalarining ommaviy taklifi o'tkaziladigan 12 ta korxonaga ro'yxatli joriy qilingan, — deydi iqtisodiyot fanlari nomzodi Ro'zimboy Qurbonov. — Xalqaro bozorda auksionga qo'yiladigan davlat aksiyalari paketi (ulushi) ro'yxatida Dehqonobod kaliy zavodi (100 foiz), Samarqand avtomobil zavodi (SamAuto) (75,2 foiz), "O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasi (79,4 foiz), "O'zagrosug'urta" (94,5 foiz), "Inter

Hotel" mehmonxonasi (100 foiz), "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ (51 foiz), Toshkent metallurgiya zavodi (49,9 foiz) kabi davlat korxonalarini bor. Shuningdek, 2025-yilda davlatga tegishli to'rtta yirik kompaniya aksiyalarining 5 foizgacha qismini xalqaro fond bozorida sotish rejalashtirilmoqda. "O'zbekhidroenergo" AJning ikkilamchi taklifi (SPO), Navoiy kon-metallurgiya kombinatining birlamchi taklifi (IPO), "O'zbektelekom" va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining birlamchi ommaviy aksiyalari joriy yilda sotuvga qo'yilishi mo'ljallanayapti.

Davlat aktivlari sotuvini jadallashtirish va iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish maqsadida qator yengilliklar ko'zda tutilgan. Davlat aktivlari 3 oyda sotilmasa (Toshkent shahri va viloyat markazlari bundan mustasno), boshlang'ich bahosi 10 foizgacha bosqichma-bosqich pasaytiriladi. 2024-yil 1-yanvargacha auktsion orqali ijaraga olingan kamida 5 yil bo'lgan va majburiyatlarini bajaragan tadbirkorlar davlat mulkini baholangan qiymatda sotib olish taklifi etiladi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari 3 oyda sotilmasa (Toshkent shahri va viloyat markazlari bundan mustasno), boshlang'ich qiymati 30 foizgacha, 6 oyda sotilmasa, 10 foizgacha pasaytiriladi. To'lovlarining 15 foizini 3 oyda, qolgan qismini 10 yilgacha muddatda bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati yaratiladi.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, 2024-yilda xususiy lashtirish jarayonida 400 ta korxonaga ulushi, 800 ta korxonadagi ko'chmas mulk, 2 ming gektar yer maydoni sotuvdan 20 trillion so'm daromad olish kutilmoqda.

Davlatimiz rahbari uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqida yuqori texnologik loyihalarni amalga oshirish uchun investorlarga yanada qulay shart-sharoit yaratilishiga doir fikrlarni ilgari surdi. Birinchi navbatda, sanoat zonalarini boshqarishda xususiy operatorlar, jumladan, yuqori malakali xorijiy kompaniyalarni faol jalb qilish amaliyoti kengaytiriladi. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati muddati bo'yicha cheklolam ham bekor qilinadi. Xorijlik sarmoyadorlar uchun yerni ijaraga berish muddati 25 yildan 49 yilgacha, ya'ni ikki barobar uzaytiriladi. Bunda qonun bilan kafolatlangan amaldagi imtiyoz va preferensiyalar to'liq saqlab qolinadi.

Mamlakatimizda ko'plab xususiy banklar ochildi. Bozorimizda Yevropaning yetakchi banklari kirib keladi. Qator raqamli banklar faoliyat yuritmoqda. Forum doirasida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan O'zbekistonning yirik banklaridan biri bo'lgan "Asakbank"ni xususiy lashtirish bo'yicha bitim imzolandi. Shuningdek, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot banki bilan birga boshqa yirik banklarning transformatsiyasi va xususiy lashtirish jarayoni faol davom ettiriladi.

Fidoiy, tashabbuskor, faol jurnalist so'nggi nafasigacha kasbiga sodiq qoldi, maqola yozish, dolzarb mavzularni ko'tarish, tahlil qilish, kimlarningdir og'irini yengil qilishdan charchamadi. Bugun ushbu sahifada e'lon qilingan maqolalarni ham Abdurauf aka bir kun oldin tahririyatga topshirgan edi.

O'nlab shogirdlarning mehribon ustoz, mohir jurnalist, jonkuyar ijodkor Abdurauf Qorjovovning yorqin xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati jamoasi



Beshafqat o'lim samimiy inson, milliy matbuotimiz fidoyisi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist Abdurauf Qorjovovni

Abdurauf Qorjovov 2020-yildan buyon "Yangi O'zbekiston" gazetasi tahririyatida faoliyat yuritib, yoshlarga mehribon ustoz, hamkasblariga samimiy do'st sifatida katta hurmatga erishdi. Shu vaqt ichida uning jamiyatimiz hayotida kechayotgan islohotlar, evrilishlar haqida teran nigob bilan yozgan o'nlab tahliliy maqolalari mushtariylar qalbidan joy oldi.



Xotira — uyg‘onsa go‘zal

Sahna va ekran san‘ati darg‘alaridan biri, O‘zbekiston Qahramoni, xalq artisti Zikir Muhammadjonov haqida gap ketganda ko‘pincha ko‘z oldimda mashhur o‘zbek sarkardasi general Sobir Rahimov obrazi gavdalanadi.

Xalq yuragidan joy olgan Mirzo Ulug‘bek, Husayn Boyqaro va shu kabi o‘nlab tarixiy shaxslar qiyofasini sahna yoki ekranga olib chiqqan bo‘lsa-da, shuurimda Zikir aka general formasida muhrlanib qolgan. Bu, menimcha, o‘sha filmni ilk ko‘rgan paytda men 10-12 yosh ekanim va shu yoshda tafakkurim mutafakkir bobolarimiz obrazidan ko‘ra, harbiy sarkarda obrazini qabul qilishga moyil bo‘lgani bilan bog‘liq, shekilli.



Darhaqiqat, “General Rahimov” filmi Zikir Muhammadjonov ijodida alohida o‘rin tutadi. Buning sabablari bor, albatta. Mahoratli aktyor yangi maydonlarida jasorat ko‘rsatib, xalqimiz sharafini himoya qilgan qahramon obrazini yaratish jarayonida o‘ziga xos tayyorgarlik va sinovlardan o‘tgan haqida ko‘p yozilgan. Ikkinchi jahon urushi davrinin muhim voqealari, jang sahnalari mujassam ushbu film haqida Zikir Muhammadjonovning o‘zi bir necha yil avval bitgan xotiralarda bunday degan ekan:

“Men buyuk aktyorlardan ko‘p narsani o‘rgandim. Ammo rol ijro etganimda faqat o‘z qalbinga murojaat qilaman. O‘z qalbm bilan yaratgan obrazim — Sobir Rahimov xalqimizga ma‘qul bo‘ldi. Bu mening quvonchim. Shinavanda tomoshabinlarim bu film yaratilib bo‘lib, xalqimizga ko‘rsatila boshlagandayoq qayerda bo‘lmasin, meni uchratishar ekan, birlari general deb qo‘yishsa, boshqalari

Buyuklik siri

“Jo‘jani kuzda sanaymiz” deyishar, yana kimlardir esa “Yurtimga kim qilich ko‘tarib kelsa, o‘shandan o‘zi nobud bo‘ladi”, deb qo‘yishardi. Buni men film odamlarga yoqishi bilan birga, ularning yuraklarida milliy g‘urur jo‘sh urganidan, deb bilaman”.

“General Rahimov” filmi tasvirga olinganiga ham 55 yildan oshdi. Suratga olish ishlari 1967-yilda yakunlanib, 1968-yil fevralida film premyerasi bo‘ldi. Shu davr ichida tomoshabinlar bu filmni qayta-qayta ko‘rdi. Kartina dunyoning turli qit‘alarida namoyish qilindi. Film Estoniya, Polsha, Rossiyada o‘tkazilgan xalqaro kinofestivallarda mukofotlar olishga muvaffaq bo‘ldi.

O‘zbek sahna san‘ati yuksalishida, avlodlarning tarbiya topishida Milliy teatrimizning o‘mi beqiyos bo‘ldi. Unda haqiqiy sahna fidoyilari eng qiyin davrlarda ham sahnani tark etmay, bu mo‘tabar ish uchun qayg‘urdi.

“Ustozlar izidan borib, ularning hayot yo‘llariga aynan hozirgi 70 yillik ijodiy faoliyatim orqasidan boqar ekanman, o‘zim ham ularning borlig‘iga — ijodiga yo‘q‘olib ketayotganimni anglayapman. Va men ham ularni bosib o‘tgan bir iz ekanimni tushunib yetdim”, deb yozgan edi Zikir Muhammadjonov xotiralarda.

Maqolamizda uning iqtiboslariga bot-bot murojaat qilayotganimiz bejiz emas. San‘atkorlar orasida o‘z ishini qoyillatib bajarib, matbuot sahifalarida turli mavzudagi maqolalar bilan qatnashib, ko‘rgan-bilganlarini kitoblar sahifalarida muhrlay oladiganlar u qadar ko‘p emas. Aslida, bu ikki sohada birdek muvaffaqiyatli ishlash hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi.

O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq artisti Zikir Muhammadjonov ana shunday iste‘dodni mujassam etgan inson edi. Albatta, xalqimiz Zikir akani O‘zbek milliy akademik teatrida, kino va televideniya yaratgan turli xarakter va qiyofadagi ko‘plab yetuk obrazlari orqali yaxshi biladi. Lekin taniqli san‘atkor matbuot sahifalarida ham faol



edi, qator kitoblar uning qalamiga mansub. San‘atimizning unutilayotgan siymolariga doir xotiralari, shuningdek, Milliy akademik teatr bosib o‘tgan tarixiy yo‘l haqidagi qimmatli ma‘lumotlari, teatr san‘ati haqidagi fikrlari jamlangan asarlari, ayniqsa, e‘tiborga molik.

O‘tgan asrning 80-yillari oxiri. Yuqori sinfda o‘qiyotgan kezarim. Unda-bunda matbuotda maqola, badiiy ijod namunalarini bilan ko‘rinib turgan paytlarim. Maktabdandan keyin turli to‘garaklarga qatnayman. Jamoat transporti, ayniqsa, metrodan tez-tez foydalanaman. Har zamonda Zikir Muhammadjonov vagon yo‘lovchilari qatorida “Beruniy” bekatigacha keladi. Tan olib aytaman, boshqa birorta taniqli shaxsni jamoat transportida ko‘rmağanman. Shunday kezar uning subhatini olgim, gaplashib ketgim keladi, ammo tortinaman, salobat bosadi. Taniqli, mashhur odam mendek bir maktab o‘quvchisini nazariga ilarmikin, degan hadik ham bor.

Bir kuni do‘stim bilan metroda ketayotsak, qaysidir bekatda Zikir aka chiqib qoldi. Joy berdik. O‘ziga yarashgan kostyumda, bo‘yibog‘ taqib, boshiga shlyapa qo‘ndirgan xalq artisti quyqu qoshlari ostidagi ko‘zlarida mimmatdilik aks etib, o‘rindiqqa joylashdi. Yonida bir kishilik joy bo‘sh.

— Bittangiz o‘tiringlar-chi, qani, — dedi Zikir aka tabassum bilan bigza imo qilib.


Yonimda do‘stim borligi yo Zikir akaning undovi dalda bo‘lib, bu mashhur aktyorning subhatidan bahramand bo‘lish fursati keldi, deb bo‘sh o‘ringa, Zikir akaning yoniga dadil o‘tirdim. Baxtinga, 5-6 kun avval o‘sha paytda Hamza, hozirgi Milliy teatrdan maktabimiz bilan birga “Kuzning birinchi kuni” asarini tomosha qilgan edik. O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘lmas Umarbekov pyesasi asosida sahnalashtirilgan spektaklda bosh rolni aynan Zikir Muhammadjonov ijro qilgan edi. Gapni shundan boshladim.

Aktyorning yuzi yorishib, subhatimiz qizib ketdi. Biz uch kishi tengdosh, oramizdagi yosh, mavqe tafovuti yo‘q edi go‘yo. Metrodan ko‘chaga chiqqandan keyin ham gurungimiz ancha davom etdi. To‘g‘ri, oradan 40-yilcha vaqt o‘tdi, hozir nimalarni gaplashganimiz tafsiloti va tilga olingan mavzular aniq yodimda qolmagan. Lekin maktab o‘quvchisi ekanimiz, havaskor ijodkorligimizdan xursand bo‘lib, xayrlashgan ulug‘ aktyorni kuzatganimizdan keyin do‘stim aytgan gap hamon esimda:

— Juda oddiy odam ekan!

Ha, buyuklikning siri oddiylikda, deb bejiz aytishmagan.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



URUSH DAVRI MAKTUBLARI
THE WARTIME LETTERS

Ikkinchi jahon urushi yillari vatandoshlarimiz uyiga, yaqinlariga yozgan maktublarni o‘qisangiz, o‘zingizni jang maydonidagidek sezasiz. Dilingiz dardga, ko‘zingiz yoshga to‘ladi. Zero, bu maktublar ortida vatanga, ota-onaga, yorga, farzandga cheksiz muhabbat yotibdi. Ular kim uchun jon berganini, kimni himoya qilayotganini bilgan. Shu bois, hech narsadan tap tortmay, qo‘rqmay, ko‘ksini baland ko‘tarib o‘linga tik boqqan. Eng achinarlisi, ushbu maktublarni intizor kutgan onazorlar, otalarning dilidagi ohni oqqa ko‘chirib bo‘lmaydi.

Yetim qolgan maktublar

Sakson yildan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsa ham bu maktublarni saqlab yurgan insonlarning bardoshini, ko‘zidan oqqan yoshini, maktublarga ko‘chgan ohlarini tasavvur qilsangiz, “urush” degan so‘zni aytishga tilingiz aylanmay qoladi. Janggohdan o‘nlab maktub yozib, uyidan birorta ham xat o‘lmay, ota-onasini, turmush o‘rtog‘ini, farzandlarini o‘ylab, xavotirda jon berganlar ez emas. Maktublar turli sabablarga ko‘ra, yetib bormagan. Ba‘zan pochta dushman qo‘liga tushgan. Ba‘zan temir yo‘l yakson qilinib, poyezdlar izdan chiqib ketgan. Natijada xatlar izsiz yo‘qolgan. Jangchilar maktubini ololmay, ikki ko‘zi yo‘lda, so‘nggi ohi ichida ketgan.

1940-yili Surxondaryo viloyati Denov tumanidan Qo‘zi Ro‘ziyev hamshahri Irgash Qurbonov bilan harbiy xizmatni o‘tash uchun Belarusning Brest shahriga chaqirilgan. Qo‘zi Ro‘ziyev Denov tumani Tortuvli qishloq kengashi Qizil dehqon xo‘jaligida yashovchi ota-onasiga yozgan birinchi maktubini o‘qib bo‘lmadi. Sababi, qalamda yozilgani uchun matn o‘chib ketgan. Konvertidagi tamg‘a esa bu xat 1940-yili yozilganini tasdiqlab turibdi.

Ikkinchi maktub ikki hamshahar nomidan yozilgan. Uni qanday bo‘lsa, shundayligicha ko‘chiramiz:

“O‘zbekiston, Surxondaryo oblast, Denov rayon, Selsovet Tortuvli, kolxoz Qizil dehqon Ro‘ziyev Achildiga, Belorussiya plya № 105/14 Qurbonov Irgash va Ro‘ziyev Qo‘zidan.

Denov tumanida yashab turgan onamga, otamga, aka-ukalarimga, do‘stlarga salom. Bu salomim armiya safida xizmatni o‘tab turgan Qurbonov Irgash do‘stingiz tomonidan, deb bilasiz. Hozir Brest zonasida xizmat qilib turibmiz. Bizdan ahvol so‘rasangiz juda yaxshi. Kuniga 12 soat mashg‘ulot, juda qattiq. Biz Germaniya chegarasidan 2 km masofada turibmiz. Do‘stim Ro‘ziyev Qo‘zining aytishicha, yaqinda urush boshlanadi degan gap bor. Shunga alaxanda (alag‘da — izoh tahririyatimiz) xatim o‘qiy olmasangiz kerak. Qalam bilan yozdim. Shu bilan so‘zim tamom. Qurbonov Irgash, Ro‘ziyev Qo‘zi. Imzo. 5/VI.1941-yil”.

Bu maktub manziliga 1941-yilning 14-iyunida yetib kelgan.

Urush payti va undan so‘ng Brest himoyachilarining jasorati tillarda doston bo‘ldi. Shunday qahramonlar orasida o‘zbekistonlik

Irgash Qurbonov va Qo‘zi Ro‘ziyev ham bor edi, albatta. Birinchilar qatorida ko‘ksini qalqon qilgan, qirg‘inbarotlardan omon qolgan va keyingi janglarda ishtirok etgan ham yurtlarimiz jasoratidan odam faxrlanadi.

1941-yilning 22-iyun tongini xalqimiz unutgani yo‘q. Kimlarningdir shirin uyqusini buzildi. Onalarning qo‘lidagi chaqaloq



yig‘lab qoldi. Yeri ko‘k yondi. Har tomondan otigan o‘q, osmondan yog‘ilib turgan bomba ovozidan yer larzaga keldi.

Uchinchi maktub: “Sizlardan xat olmadim. Shuning uchun bir oz xafaman. Haj ataganman. Yana Xudojonan

so‘rab turmoqdaman. Xudojonim o‘zi nima degan bo‘lsa, shuni ko‘rib kelmoqdaman. Xudo xohlasa, sog‘ borib qolarman, deb xat yozuvchi Ro‘ziyev Qo‘zi”.

1941-yilning 29-sentabrda yozilgan maktub oradan 20 kun o‘tgach, manziliga yetib kelgan. 1940-yil dekabr-dan buyon qizil armiya safida xizmat qilayotgan, og‘ir janglarda qatnash-

gan Irgash Qurbonov va Qo‘zi Ro‘ziyevning 1941-yil 29-sentabrda yozgan maktubi urush boshlanganiga uch oydan ko‘proq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, ular hamon safda ekanidan guvohlik beradi.

Xatni o‘qigach, ko‘zim oldi qorong‘ilashdi. Boshim aylanib, qonli janglar shohidi bo‘lgan maktubni ko‘ksimga bosdim. Bu maktublar necha qo‘ldan qo‘lga o‘tib, xat tashuvchilar tomonidan gohi piyoda, gohi otda, gohi poyezdda minglab chaqirim yo‘l bosib, manziliga yetkazilgan.

To‘rtinchi maktub: “1942-yil, mart. Xudo xohlasa, yaqinda borib qolaman. Hamma xat olib turibdi. Men bo‘lsa hech kimga xat olmayapman. Qanday bo‘lsa ham aytaman. Mendan omad yuz o‘g‘irgan bo‘lsa ham... Otajon, xat kelmadik. Otajon, umidlarimgizni uzmag, Xudo xohlasa, yaqinda borib qolarman. Urush to‘xtasa, deb xat yozuvchi o‘g‘lingiz Ro‘ziyev Qo‘zi”.

Beshinchi maktub: “Добрый день. Здравствуйте, дороге родителю, папа, мама и брат и сестра. Шлю я вам свой пламенной привет и желаю всего хорошего во первых сообщую что нахажус я в Госпитале ранен в руку.

Пока писать не магу меня направляю в другой госпиталь потом сообщу. Больше ждать нечего пока досвидания с приветом к вам Рузвее К.”.

Xatni kimdir yozib bergani ko‘rinib turibdi. Bu Qo‘zining so‘nggi maktubi. Dahshatli urushdan guvoh bo‘lgan shunday maktublarni o‘qisangiz, dilingiz dardga to‘lishi tayin. Chunki har bir maktub ortida qurbon bo‘lgan inson hayoti turibdi. Xatida “O‘lmasam, yaqinda borib qolarman”, degan yigit qani? Dilni o‘rtagan bu savolga javob izlaymiz, lekin topa olmaymiz.

Ikkinchi jahon urushida Denov tumanidan qatnashib, halok bo‘lganlarga o‘natilgan yodgorlikda Qo‘zi Ro‘ziyev nomi turibdi. Biroq u bilan birga 1941-yil 5-iyunida Brestdan maktub yozgan do‘sti Irgash Qurbonov ro‘yxatda yo‘q. Balki u qishlog‘iga tirik qaytgandir...

Yuragim sanchdi. Yodgorlikdan uzoqlashdim. Qo‘lida bir cho‘chqoq gul tutib kelayotgan yigitga ko‘zim tushdi. Bobolari jasoratini unutmayotgan avlodga tashakkur.

Nasriddin ISMOILOV,
jurnalist

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 1534. 44034 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Mansurbek Jabborov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy